YUqorida ko'rsatilgan misollardan ko'rinib turibdiki, RID va RDD yordamida turli antigenlarni, shu jumladan o'simlik viruslarini serologik jihatdan tahlil qilish mumkin. 90mmli Petri likopchasida 500-600ta namunani joylashtirib, kerakli natijani olish mumkin. Barcha immunodiffuzion testlarni amalga oshirish va testning aniqlik darajasi, antigen va antiteloni diffuziylanishiga bog'liq bo'lib, diffuziylanish qanchalik yuqori bo'lsa, test natijasi shunchalik aniq bo'ladi. Testni borishida paydo bo'ladigan noaniqlik, nospetsifik reaksiyalarga bog'liq bo'ladi. YA'ni bunday holatda, ba'zida maxsus bo'lmagan reaksiya turlari amalga oshib, yolg'on musbat pretseptitsiya zonalarini hosil bo'lishiga olib keladi (komponentlarni denaturatsiyasi asosida hosil bo'ladigan ba'zi komponentlar, shuningdek, turli "tikuvchi" va "yopishtiruvchi" agentlarni bo'lishi).

Agglyutinatsiya reaksiyalari. (Lateks –test LT) YAna bir ancha keng tarqalgan testlar gruppasiga aggmotinatsiya reaksiyalariga asoslangan testlar guruhini kiritish mumkin. Agar birorta "olib yuruvchi tashuvchi"- (lateks, bentonit, bakteriya xujayralari, eritrotsit va hakovzalar) AS bilan sensibilizatsiya qilingan bo'lsa va tashuvchi gomogen suspenziyasiga virus solinsa, bunda har xil razmerli agregatlar hosil bo'lishi kuzatiladi. Masalan, polistrol lateksga asoslangan agglyutinatsiya reaksiyasi yordamida fitoviruslar aniklangan. Bunda 0,31 mkm razmerli lateks zarrachalari immunoglobulin fraksiyasi bilan sensibillanadi. So'ngra bu diagnostikumni bir tomchisi shisha plastinka yoki kapillyarda bir tomchi o'simlik shirasi bilan aralashtiriladi, hamda maxsus aralashtirgichda chayqatiladi. Agar musbat reaksiya bo'lsa, lateks zarralari agglyutinatsiyasi kuzatiladi. Reaksiya natijasini oddiy ko'z bilan yoki mikroskopni kichik ob'ektivida (kattalashtirilgan holatda) ko'rish mumkin. Ushbu jarayonning amalga oshirish muddati ancha kam vaqttni ya'ni 10-60 minutni tashkil etadi. Lateks testni takomillashtirilgan formasi ham mavjud bo'lib, u oltin, ya'ni tilla kabi sariq yaltiroq stafilokokkni A-oqsili asosida boradigan reaksiya turidir. Lateks-test reaksiyasida- lateks zarrasi A- stafilokok oqsili bilan, keyin esa antizardob bilan aralashtirilib, reaksiya qo'yiladi. Bunda ushbu usul bilan ba'zi viruslar diagnostika qilinganda, uning sezgirligi 2-16 ga ko'tarilishi aniqlangan. Bunda ushbu usulning sezgirligini oshishini quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, lateks A oqsil bilan sensibilizatsiya qilinsa, oqsil unga yaxshi birikadi va uning birikish mikdori boshqa oqsillarga qaraganda ancha ko'p miqdorni tashkil etadi. Ikkinchidan lateksga nisbatan, xaos bo'lib joylashgan antiteloning aktiv markazlari tashqi tomonga yunalgan holatda joylashadi.

LT ning yukori sezgirligi, tezligi, past titrga ega zardoblarni qo'llash mumkinligi LTni faqat laboratoriyada o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot ishlarida emas, balki, dala sharoitida olib boriladigan ba'zi ishlarda ham qo'llash mumkin. Uning yordamida kartoshkani X, U viruslarini 4-10 minut ichida aniklash mumkin.

Bentonit flokulyasiyasi testi - /BFT/ spetsifik antitela bilan sensibillangan bentonitni virus zarrasi ishtirokida agglyutinatsiya bo'lishiga asoslangan. Bentonit-ozon gidratlanadigan alyumosilikat bo'lib, suspenziya holatida, nospetsifik ravishda oksillirni biriktiradi. Uni sesibillash uchun suyultirilmagan antizardob, ya'ni sulfat ammoniy bilan cho'ktirish natijasida olingan gamm-globulin fraksiyasi ishlatiladi. Reaksiyani amalga oshirish jarayoni, xuddi LTga juda o'xshashdir. Ushbu metod asosida VTM tomatini halka mozaykasi, soya mozaykasi viruslarini toza preparatlari 0,3-1 mkg/ml gacha bo'lgan miqdorini aniklash mumkin.

Noto'g'ri gemmaglmotinatsiya reaksiyasi /RNGA/ fitoviruslar aniklashda ancha kam qo'llaniladi. RNGA odatda kapsid oksilida gemaagglyutini bor viruslarni aniklashda

ishlatiladi. Odatda eritrotsit diagnostikum noto'g'ri usulda tayyorlanadi: eritrotsitni ustiga antitelalar polifunksiyali tikuvchi agentlar (gludar dialdegidi, formaldegid, xromxlori, tanin va boshqa moddalar) yordamida "tikiladi". SHundan so'ng unga aniqlanayotgan modda, ya'ni antigen solinadi va ma'lum muddat inkubatsiya qilinadi. Reaksiya jarayoni nihoyasiga etgandan so'ng, natija tahlil qilinadi. Ushbu usul yordamida VSHMYA virus preparati aniklangan bo'lib, uning sezgirligi 0,01 mkg/mlni tashkil etgandir. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bir qator viruslar uchun RNGA, LTga qaraganda 8-40 marta sezgirroqdir.

Sensibillash uchun noorganik va polimeor moddalardan tashqari, ba'zi mikroorganizm xujayralari ham ishlatiladi. Eng keng ko'lamda aktivligi yo'qotilgan tillasimon stafilakokk ishlatiladi. Bunda antizardob va bakteriya xujayralari aralashtirilib, so'ngra ushbu aralashmaga antigen qo'shilsa, yuqori tezlikda agglyutinatsiya reaksiyasi yuz beradi. Avvalo, bu metod mikroorganizmlarni serotiplarga ajratishda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik esa, fitoviruslarni diagnostika qilishda keng ishlatila boshladi.

Tillasimon stafilakokkni muhim tomoni unda A deb ataluvchi oqsil modda mavjud. A- oqsil ajoyib xususiyatga ega bo'lib, u immunoglobulin molekulalarini Fs-fragmenti bilan bog'lanish xususiyatiga egadir, bunda antiteloni antigen bilan bog'lanadigan faol markazi bo'sh qoladi. Bu xususiyat faqat A oqsilga xos bo'lmay, balki ko'pgina mikroorganizmlar oqsillariga ham xosdir. Faqat ular etarlicha chukur o'rganilmagan. A oqsil esa ancha yaxshi o'rganilgan bo'lib, etarli ma'lumotlar to'plangan. Ushbu oqsil xujayra devorini tashqi qavatida joylashgan, tekis tarqalgan va immunoglobulinlar bilan /antizardob AS/ boglanishi ancha osondir. Bundan tashqari A- oqsilini toza preparati olingan bo'lib, uning strukturasi va fizika – ximyoviy xususiyatlari o'rganilgan. Reaksiya jarayonida antigen bilan antiteloni o'zaro birlashishiga A- oqsil to'sqinlik qilmaydi. Bunda reaksiya davomida Fs- fragmentini A- oksiliga nisbatan "spetsifiklikligi"- moyilligi yanada oshadi.

A- oqsilining bunday xususiyati va uning mikrobiologik diagnostikada keng ishlatilishi, shuningdek, fitoviruslarni diagnostika qilishda, yana viro-bakteriya agglyutinatsiya /ABV-test/ metodini yaratilishida turtki bo'ldi. ABV-testning mohiyati shundan iboratki, bunda 10%li stafilokokk suspenziyasi virus antizardobi bilan bilan aralashtiriladi. So'ngra diagnostika qilinayotgan eritmaning bir tomchisi, masalan, virus preparatining bir tomchisi buyum oynachasi ustida aralashtiriladi. Ma'lum muddat o'tgandan so'ng, esa agregatsiya bo'lgan stafilokokklarni opok cho'kmasi hosil bo'lganligini oddiy ko'z bilan kuzatish mumkin bo'ladi. ABV- test yordamida viruslarni 0,2-0,5mkg/ml gacha aniklansa bo'ladi. Albatta ushbu usul RIA, FIA va IET usullarining sezgirligidan ancha pastdir, ammo tahlilni ancha oson amalga oshirish mumkinligi, uni amaliyotga keng tadbiq etish imkonini beradi. Ushbu metod iktodiy jihatdan qulay bo'lib, ko'p mablag' talab etmaydi. Bundan tashqari AS ni 100-200 marta suyultirib ishlatilganda ham, yaxshi natija olish mumkin. SHuning uchun ushbu usul hujayrada juda kam to'planadigan viruslarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, yuqorida qayd etilgan diffuzion, agglyutinatsion usullar sezgirligi jihatidan past hisoblanib, hozirgi kun talabiga javob bermaydi. SHu sababli, sezgir, qulay, zamon talabiga javob beradigan metodlarni ishlab chiqish muhimdir. Hozirgi kunda juda katta sezgirlikka ega metodlarni ishlab chiqishda, immunologik reaksiyalarni amalga oshirishda nishon sifatida radioaktiv izotop modda, fluoressent- zont, DNK- zont, shuningdek, ferment molekulalaridan foydalaniladi. Ayniqsa, ferment molekulalari nishon sifatida keng qo'llaniladi. Sababi, ular bir necha qulayliklarga ega bo'lib, har tomonlama afzal biologik faol moddadir. Avvalo ular inson organizmi va atrof- muhit uchun hech qanday xavf tug'dirmaydigan moddalar hisoblanib, yuqori fermentativ faollikka ega bo'lganligi uchun, reaksiya jarayonini 10^{12} tezlashtirishi mumkin.⁵

⁵ Kimball Nill. Glossary of Biotechnology terms. New York: CRC Press LLC., 2002.

Nazorat savollari:

- 1.Immunologik reaksiya jarayoni qanday amalga oshadi?.
- 2.Imun kompleksning hosil bulishi qanday qonuniyat asosida kechadi?
- 3.Polivalent antigenlar haqida tushuncha bering
- 4.Flyuretsent moddalar yordamida antitanani nishonlashni tushuntiring
- 5.Ferment yordamida antitanani nishonlash qanday amalga oshadi?

Mavzu-6: Antigen va antitana reaksiyalarining taxlili

Reja:

- 1.In Vivo sharoitida antigen va antitana reaksiyalari
- 2.Antigen va antitana larni miqdoriy tahlili
- 3.Tahlilni gomogen usuli .
- 4.IET ni geterogen usullari haqida tushuncha

Immunoenzim tahlili 60-yillarni o'rtalarida vujudga kelib, avval, gistologik preparatda antigenni identifikatsiyalash, keyin esa immunodiffuziya va immunoelektroforez testlarida pretsipitatsiya chiziqlarini aniqlashda qo'llanilgan. Bundan tashqari biologik suyuqliklarda antigenlar va antitelalarni miqdoriy tahlili uchun ishlatila boshlangan. Metodni geterogen usulini ishlab chiqishda E.Engvall va R.Perlmann, shuningdek, ularga bog'liq bo'lmagan ravishda V.K. Van Veemen va A.SHuurslar 1971 yili o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar va ushbu usulning muallifi hisoblanadilar. 1972 yili esa E.K. Rubenshteyn o'z shogirdlari bilan IET gomogen usulini ishlab chiqishga muvaffaq bo'lganlar. Ushbu IET lari usullarini ishlab chiqqan mualliflar aynan, o'z tadqiqot ishlarida va shuningdek, amaliyotda IET talablariga javob bera oladigan ferment molekulalarini va ularning kofaktorlarini nishon sifatida qo'llab, kon'yugat olish mumkinligini isbotlaganlar. Sababi yuqorida aytib o'tilgandek, fermentlar o'z substratlari ishtirokida kimyoviy reaksiyani 10^6 - 10^{12} marotaba tezlashtirar ekanlar, shu bilan birga ular antigen va antitelalar o'rtasida bo'ladigan immunokimyoviy jarayonlarning sezgiriligini ham bir necha bor oshirib, aniqlanishi kerak bo'lgan modda miqdorini (pkM) juda kichkina qiymatlarda aniqlash uchun kerakli fermentativ reaksiya turini katalizlash imkoniyatga ega moddalar hisoblanadilar. SHuning uchun immunokimyoviy reaksiyalarda, faqat ferment molekulalari emas, balki ularning kofaktorlari ham maxsus markerlar sifatida IET ning turli usullarida keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi vaktida immunoenzim tahlili (IET) usulining xilma-xil turlari ishlab chiqilgan. IET turli xil moddalarni aniqlash uchun keng qo'llaniladi. Jumladan, dorivor preparatlarni, gormonlarni, antitelalarni, virus va bakterial antigenlarni, oziq-ovqat toksinlarini, fitotoksinlarni, narkotik moddalarni, hamda sifiliz, malyariya taksoplazmoz, alveokok, qizilcha va gelmintlarni, salmonellezni va kasallik tug'diruvchi mikroorganizmlarni diagnostika qilishda keng qo'llaniladi. Modomiki, IET antitelalarni aniqlashda ham qo'llanilar ekan, bu esa o'z navbatida ko'p kasalliklarni boshlanish bosqichida oldini olish va serodiagnostika qilish imkoniyatini yaratadi.

IETning asosiy mohiyati shundan iboratki, biokatalizator molekulasida reaksiya ketadigan zonada antigen bilan yoki antitela bilan bog'langan shaklda bo'lishidir. Antigen yoki antitelaning ferment molekulasida bilan bog'langan shakli kon'yugat deb yuritiladi. IETni o'tkazish vaqtida antigen antitana molekulasida bilan bog'langandan so'ng, ushbu kompleksni aniqlash uchun, fermentning substrati kiritiladi va reaksiya natijasida xosil buladigan mahsulotlar aniqlanadi.

SHuni aytib o'tish lozimki, IETda fermentativ reaksiyani deteksiya qilish hosil bo'lgan mahsulotni aniqlash bilan chegaralanmay, balki reaksiyasi natijasida rangli o'zgarish, issiklik ajralish yoki yutilish, flyuretsensiya, paramagnit xususiyatlarni yoki boshka fizik-kimyoviy parametrlarni o'zgarishi natijasida aniqlashni amalga oshirish mumkin.

Hozirgi kunda qo'llaniladigan immunoenzim tahlili metodlarining umumiy ko'rinishini sxematik ravishda quyidagicha izohlash mumkin.

IETni o'tkazishda immun komponentlarning tozalik darajasi muhim ahamiyatga egadir. Sababi IETning sezgirlik darajasi komponentlarga va ayniqsa unda nishon sifatida qo'llanilayotgan ferment molekulasiga faolligiga bog'liq bo'ladi. Antitela serologik jihatdan faol va antigenga nisbatan titri yuqori bo'lishi uchun, antigenning immunogenlik xususiyati yuqori bo'lishi kerak. SHunda antigen kerakli antitelalarning uzluksiz sintezini amalga oshirishga qodir bo'ladi. IETda ishlatilayotgan immun komponentlarning titri yuqori bo'lmasa, ushbu oqsillar modifikatsiyadan so'ng denaturatsiyalanishi hisobiga inaktivlanadi.

Ayniqsa tokcinlar holatidagi oqsil tabiatli ba'zi moddalar, viruslar, ba'zi mikroorganizmlarni faol bo'lmagan shtammlarini antigen sifatida olish kon'yugatlarni kimyoviy sintezida ijobiy natija bermaydi. SHu sababli antigen antitelalarni ma'lum manbadan ajratish va ularni tozalash va kalibrovka egri chiziklarini tayyorlash talab etiladi. Antitelalarni tozalashda biosferik xromatografiya qo'llaniladi. Buning uchun avvalo biospetsifik va immunosorbentlar sintezlash kerak. Ushbu immunosorbentlar IETning geterogen variantlarini ishlab chiqishda kerak bo'ladi. Immunosorbentlar olish uchun mmobilizatsiyalangan antigenlarni sintezlash zarur. CHunki geterogen IET qattiq tashuvchi yuzasida olib boriladi.

IETni qaysi usuli amalga oshmasin unda albatta nishon sifatida ferment molekulari ishlatiladi deb yuqorida aytib o'tilgan edi. SHu sababdan avvalo antigen yoki antitela kon'yugati sintezlanadi. Buning uchun antigenga nisbatan anik spetsifik bulgan antitela tikuvchi komponent bilan modifikatsiyalanadi ya'ni antitela ferment molekulasi kimyoviy (kovalent) bog'lanadi. Kimyoviy sintezlangan kon'yugatlarining fermentativ va serologik faolliklari aniqlanadi. Kon'yugatlar tahlilni o'tkazish uchun yaroqli bo'lsa, nihoyat so'ngi bosqichda IET o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar kerakli asboblarda yordamida tahlil qilinadi. Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, immunoenzim tahlilini o'tkazishda bir qancha qoidalarga rioya qilish talab etiladi.

Immunoenzim tahlilini ishlab chiqishda, yaratishda bir qator qoidalarga rioya qilish kerak. Birinchidan aniqlanayotgan moddani, ya'ni antigenni taxlil qilishda yukori darajada mos keladigan, unga o'ta spetsifik bo'lgan antitanalarni tanlab olish talab etiladi. Ikkinchidan shunday fermentni nishon sifatida ishlatish uchun tanlab olish kerekki, u antigen yoki antitana bilan shuningdek, tashuvchi bilan kimyoviy usulda bog'langanda ham, o'z xususiyatini o'zgartirmasligi va bir vaqtning o'zida antigen va antitana o'rtasida kechadigan immunologik reaksiyaga ta'sir kilmamasligi va ayniqsa, fermentativ faolligini saqlab qolishi kerak. Uchinchidan IETni o'tkazishda qo'llaniladigan reagentlar va asbob uskunalari, shuningdek immun komponentlarni immobillash uchun ishlatiladigan tashuvchilar har tomonlama qulay va iqtisodiy jihatdan talabga javob beradigan bo'lishi lozim. Nihoyat ahamiyatli omillardan yana biri IETda komponentlarni barqarorligini ta'minlash muhimdir. Bunda yuqori barqarorlikka ega bo'lgan komponentlarni olish uchun tikuvchi agentlar yordamida tashuvchilarga immobillash jarayonini amalga oshirish yordamida erishish mumkin. Bu o'rinda shuni aytib o'tish lozimki, immunoenzim tahlilini, asosan ikkita katta usulga ajratish mumkin: Geterogen va gomogen usullarga. IETning geterogen usuli qattiq tashuvchi ishtirokida olib boriladi Bunda immun kompleks tashuvchiga

immobilizatsiya qiladi va immun kompleks hosil qiladi va immun reaksiya amalga oshgandan so'ng, fermentativ faollikni o'lchash orqali antigen miqdori kalibrovka chizig'i yordamida aniqlanadi.

IETning gomogen usulida esa barcha jarayonlar suyuq muhitda, ya'ni qattiq tashuvchi ishtirok etmagan sharoitda olib boriladi. Immun kompleksni registratsiya qilish jarayoni katalitik yoki ferment reaksiyalari ketishi bilan bog'lik o'zgarishlar asosida amalga oshiriladi. YUqorida qayd etilgan ikkala usul uchun ham umumiy talab shundan iboratki, antigen yoki antitanelarni standart eritmalar asosida oldindan kolibrovka chizigini yaratish kerak bo'ladi. Chunki, aniqlanayotgan modda miqdorini aniqlash, IET natijasini tahlil qilish ana shu kolibrovka asosida ko'rsatib beriladi.

Bu usullarni xam bir kancha gruppalariga bulish mumkin. Imobilizatsiyalangan antitela va antigen-ferment kan'yugatlarini kullash. Aniklash uchun uch boskichda olib boriladi: Birinchi boskichda anti- telaferment kan'yugatlarini ma'lum mikdori aniklanayotgan antigen bor namuna bilan aralashtiriladi. Keyingi boskichda imobilizatsiyalangan antitelalar bilan bu aralashmani uzaro ta'sirida ikkala antigen nishonlangan vanishonlanmagan fermentning aralashmadagi proporsional mikdori ishtirok etadi. Uchunchi boskichda substrat bilan reaksiyani ikkita usuldan birida yo boglanmagan kon'yugat molekulalari bilan, yoki imobilizatsiyalangan antitela boglangan ferment molekulasi bilan utkazish mumkin.

Reaksiyani ustunli /kolonochniy/ tarzda utkazish kulay. Antitelalar bilan imobilizatsiyalangan tashuvchi mikrokolonkaga joylashtiriladi. Avvalam bor tashuvchidagi antitelalar mikdoriga ekvivalent bulgan antigen-antitela kon'yugatlarini mikdori aniklanadi. Bu tajriba kolonka orkali fermentativ aktiv kon'yugat chikmaguncha, nishonlangan antigenning oshib boruvchi mikdori utkaziladi.

Oldindan antigenni ekvivalent mikdori topilgandan sunggina aniklashni uziga utiladi. Kolonka orkali aniklanayotgan antigen tutgan namuna utkaziladi. Sungra u yuvilgandan keyin, xuddi shu kolonka orkali antigenlarni fermentli kan'yugatlarini ekvivalent mikdoriga eritmaga utkaziladi. Aniklanayotgan namunada antigen kancha kup bulsa, mikrokolonkadan yigilgan eritmaning ferment aktivligining kursatkichi shuncha yukori buladi.

2/. Imobilizatsiyalangan antitelo va antitelo-ferment kan'yugatlarini kullash. Bu metod sodda bulganligi uchun xiilma-xil maksadlar keng kulaniladi. Biror bir kulay metod yordamida antitelo imobilizatsiyalangan xolatda utkaziladi. Bunda tashuvchini uzi reaksion teshik / yacheyka / rolini bajaradi.

Birinchi boskichda imobilizatsiyalangan antitelalarga, aniklanayotgan antigen tutgan namuna kulishadi. Sungra antitelo bilan boglanmagan barcha birikmalar yuviladi. Keyingi boskichda peaksion muxitga antitelolarni fermentli kan'yugatlari solinadi. Nishonlangan antitelolar xam antigenlar bilan boglanadi va ularning mikdori binobarin ferment aktivligi xam namunadagi antigen mikdoriga proporsional buladi. Boglanmagan kon'yugatlarni yuvgandan sung substrat kushiladi.⁶

⁶ Daniel C. Adelman, Thomas B. Casale, Jonathan Corron. Manual of allergy and immunology 2012.

Nazorat savollari:

1. In Vivo sharoitida antigen va antitana reaksiyalarini tushuntiring
2. Antigen va antitanalarni miqdoriy tahlil qilishda nimalarga e'tiborni qaratish kerak?
3. Tahlilni gomogen usuli nimalar bilan boshqa tahlil usullaridan farq qiladi?
4. IET ni geterogen usullari haqida tushuncha bering

Mavzu- 7: Immun reaksiyalarning o'ziga xosligi

Reja:

1. Sendvich usulini mohiyati va qo'llanilishi
2. Fermentlar va ularning substratlari
3. Ekranlashtirish asosida antitanani miqdoriy tahlili
4. Raqobatlashish usuli asosida antigenlar tahlili
5. Effektorlar va ularning xususiyatlari

Immun reaksiyalarning o'ziga xosligilik jarayonlarini bir necha xil immun reaksiyalar va zamonaviy usullar yordamida ko'rib chiqish mumkin. Biror antigenni aniqlashda, immunologik reaksiyalarni amalga oshirishda nishon sifatida ferment molekulalarini, shuningdek, aktivatorlar va ingibitorlarni qo'llab zamonaviy immunologik usullarni o'tkazish mumkin.

Antigenni immun reaksiya yordamida aniqlashda uni effektgorga bog'lansa, aktivlash xususiyatiga ega bo'lgan (yoki ingibirlovchi) kompleks yoki kon'yugat hosil kiladi. Bunda effektor bilan bog'langan antigen va aniklanishi lozim bo'lgan antigen, antitela bilan bog'lanish uchun bir-biri bilan raqobatlasha boshlaydi. Immun reaksiyasi o'tkazilgandan so'ng, eritmaga ferment va ferment- substrati aralashmasi solinadi. Immunokimyoviy reaksiyaga kirishgan effektor, ferment aktivligiga ta'sir qila olmaydi. Bir vaqtning o'zida ferment bilan bog'langan effektor ferment aktivligini oshiradi (agar u aktivator hisoblansa). Aniklanayotgan namunada antigen miqdori qancha ko'p bo'lsa, antigen bilan bog'langan effektor ta'siriga boglik bo'lgan ferment faolligi ham shuncha katta bo'ladi.

Agar effektor aktivator emas, balki ingibitor bo'lib hisoblansa, reaksiya sistemada aktivlikni kamaytirish bilan birga, namunadagi aniqlanayotgan antigen miqdorining kamayishi kuzatiladi.

IETda ferment substratlarining ham roli katta. Ko'pincha IETda ishlatiladiga ferment molekulalarining substratlari suvda yaxshi eriydigan moddalar bo'ladi. Ammo bir kator fermentlar polimolekulyar eki polimolekulyar assotsiatsiyalar tashkil kilgan substratlarga ta'sir kiladi. Bunday hollarda substrat hosilalarining kattaligi ferment molekulasi kattaligidan katta va xatto immun komplekslarni o'zidan ham katta yoki ularga teng bo'lishi mumkin. Bunday hollarda immun reaksiya o'tkazilgandan keyin, ferment o'z substratlari bilan ta'sirlanish qobiliyatiga ega bo'lmay qoladi. Ushbu metodda antigen va antitana immun komponentlarining ferment bilan olingan kon'yugatlari qo'llanilishi mumkin.

IETni titrlash usuli yordamida biror modda, masalan antitana aniqlanishi lozim bo'lsa, bunda nishonlangan antigenlar qo'llanilib, bunda antigen kon'yugatini antitana bilan titrlash orqali kon'yugatni

berilgan miqdoriga ekvivalent antitana konsentratsiya aniqlanadi. So'ngra antitanaga aniklanayotgan antigen mavjud namuna qo'shiladi. Nishonlanmagan antigen antitelalar bilan bog'lanadi. Xuddi shu namunaga antigen ferment kon'yugatining dastlabki miqdori qo'shiladi. Bynda birinchi immun reaksiya o'tkazishda antitanani sarflanishi xisobiga nishonlangan kon'yugatning bir qismi erkin koladi. Xuddi ana shu erkin qolgan kon'yugat immun komponent bilan o'zaro ta'sirlashish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bundan shunday xulosa etish mumkinki, tekshirilayotgan eritmada qancha antigen ko'p bo'lsa, ferment faolligi shuncha yuqori bo'ladi. SHuni ta'kidlamoq kerakki, ushbu metodning hamma bosqichlari ham gemogen sharoitda olib borilmaydi. Ko'pincha substratlar suvli eritmalarda geterogen sistemani hosil kiladi. SHunday kilib, so'ngi bosqich mohiyatiga ko'ra geterogen fermentativ jarayonni tashkil etadi. YUqorida keltirilgan misollardan shunday xulosa qilish mumkinki, IET usullari to'rtta asosiy prinsip asosida amalga oshiriladi: 1. Titrometrik usul 2. Raqobatlashish 3. "Sendvich" va 4. Ekranlashtirish prinsipi. Bulardan har biri IET ning geterogen va gomogen usullari yordamida olub boriladi.

IETning titrometrik usuli. IETning titrometrik prinsipi bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda, aniqlanayotgan antigen va antitanalar o'rtasida immunkimyoviy reaksiya amalga oshadi, reaksiyaning keyingi bosqichida esa, reaksiya muhitga erkin holdagi antigen qo'shiladi. SHundan so'ng, nishonlangan ferment molekulasi reaksiya muhitga kiritiladi. Birinchi bosqichda immun reaksiya natijasida antigen immobilizatsiyalangan holatdagi antitanalarni bir qismi bilan bog'lanadi. Bog'lanmagan komponentlar immobilizatsiyalangan antitanalar bilan bog'lanishga harakat qila boshlaydi, shunda reaksiya muhitga fermentni oldindan aniqlangan miqdordagi kon'yugatlar qo'shiladi. Kon'yugatni miqdori shunday tanlab olinadiki, u namunadagi immobilangan antitanalar miqdoriga ekvivalent bo'lishi kerak. Ikkinchi immun reaksiya o'tkazilganda, namunaga qo'shilgan kon'yugat antigenlardan bo'sh qolgan, immobilangan antitanalar bilan bog'lanadi. YA'ni antigenlardan bo'sh qolgan antitanalar kon'yugatlar bilan titrlanadi. Ferment molekulalarini miqdorini shu ferment substrati bilan reaksiya o'tkazish orqali, ferment faolligini aniklash amalga oshiriladi. Kon'yugatning fermentativ faolligini o'lchash jarayonida faollik qancha kam bo'lsa, namunada aniqlanayotgan antigen miqdori shuncha ko'p bo'ladi. Bordiyu, reaksiya mahsulotini hosil bo'lishi kam miqdorda bo'lsa, u holda (antigen umuman bo'lmagan kontrol tajribaga nisbatan) aniqlashning alternativ usuli qo'llanilib, ikki immun reaksiya o'tkazilgandan so'ng, ferment kon'yugatining faolligi farqi asosida antigen miqdori aniqlanadi.

Namunada antigen miqdori qancha ko'p bo'lsa, bu holda kon'yugat faolligining farqi shuncha ko'p bo'ladi. Hosil bo'lgan fermentativ reaksiya mahsuloti yoki reaksiyaga kirishmay qolgan substrat miqdori biror bir sezgir va qulay metod yordamida aniklanadi. Ko'p holatlarda, ko'pincha bo'yovchi moddalar ishlatiladi. Buning natijasida fermentativ reaksiya mahsulotining rangi o'zgaradi va bu o'zgarish o'z navbatida aniqlanayotgan namunada antigenni borligidan dalolat beradi. Ushbu usul insulinni aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Raqobatlashish prinsipi. Ushbu prinsip immunkomponentlar bilan ferment kon'yugati o'rtasida boradigan raqobatga asoslangan. Bunda immobilangan antitanaga bog'lanish uchun antigen va aynan shu antigen

kon'yugati raqobatlashadi. Immun reaksiyani o'tkazish uchun avval, immobilizatsiyalangan antitana mavjud inkubatsion muhitga aniqlanayotgan antigen va antigen ferment kon'yugati eritmasi solinadi. Aniqlanayotgan namunada antigenlar miqdori kancha ko'p bo'lsa, nishonlangan ferment antigeni va aniklanayotgan antigen orasida antitanalar bilan bog'lanish rakobati shuncha /konkurensiya/ oshadi. Bunda bog'lanuvchi kon'yugat molekulalarini fermentativ faolligi qancha kam bo'lsa, namunadagi antigen miqdori shuncha ko'p bo'ladi. Raqobatlashish prinsipi turli biologik moddalarni, masalan tiroksinni, globulinni, ditoksin kabi moddalarni va boshqa turli antigenlarni aniqlashda keng qo'llaniladi. "Sendvich"

prinsipi. YUqorida qayd qilingan prinsiplar ferment kon'yugatlari va antigen o'rtasida boradigan immun reaksiyalarga asoslangan bo'lsa "Sendvich" prinsipi esa aniklanayotgan antigenni bir vaqtda, aynan shu antigenga qarshi olingan antitana, hamda antitana kon'yugatlarini o'zaro ta'sirlashiga asoslangandir. Ushbu usulda titrlash prinsipiga o'xshash immun reaksiyasi bir necha bosqichda amalga oshiriladi.


Biriichi bosqich immobilangan antitanalarning bir qismi aniklanayotgan antigen molekulalari bilan bog'lanadi. So'ngra tashuvchi yuvib tashlanadi. Tashuvchi yuzasida antigen-antitana kompleksi qoladi. SHundan keyin kompleks ustiga ferment bilan nishonlangan antitana kon'yugati qo'shiladi. Ferment kon'yugatlari antigen molekulasini mavjud kompleks bilan bog'lanadi. Ushbu jarayonda aniqlanayotgan namunadagi antigenlar qancha ko'p bo'lsa, ferment bilan nishonlangan antitanalar kon'yugatining fermentativ faolligi shuncha ko'p bo'ladi. YA'ni ferment substrati bilan reaksiya o'tkazish bosqichida uning mahsulot hosil qilish tezligi yuqori bo'ladi. Immobilangan antitana va ferment bilan bog'langan antitanalar orasida siqilgan antigen kompleksi "sendvich" hosil qiladi va shu sababli ushbu prinsip "sendvich" deb yuritiladi. Hozirgi vaktida "sendvich" prinsipi turli xil antigenlarni aniqlashda immunoenzim tahlilida keng miqyosda qo'llanilmokda. **Ekranlashtirish / to'sish / prinsipi.** Substratlarni o'z fermentlariga yoki aksincha fermentlarni substratlari o'rtasida bo'ladigan reaksiyalar, nishonlangan antigen-antitana va ferment komponentlari orasidagi immun reaksiyasini o'tishi natijasida o'zgarishi mumkin. Immun reaksiya ketayotgan muhitda antigen-antitana komplekslari hosil bo'lgandan so'ng, bog'langan holdagi ferment molekulalarini antigen yoki antitanalar to'sadi. Bunday sharoitda ferment molekulasini o'z substratining ta'siri natijasida namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu jarayonga immunoenzim tahlilining bir qator prinsiplari va usullari asoslangan.

Ushbu ekranlashtirish prinsipining birinchi bosqichida aniqlayotgan antigen, antitana bilan o'zaro immun reaksiyasiga kirishadi. Buning natijasida bir qism antitanalar antigen bilan bog'lanadi. So'ngra muhitga ferment bilan nishonlangan antigen kon'yugatlari kiritiladi. Reaksiya natijasida ortib qolgan antitana, antigen kon'yugatlari bilan boglanadi va ferment molekulasining bir kismini substrat bilan ta'sirlashishdan to'sadi. Ushbu prinsipni qo'llash samara berishi uchun supersubstratlarni gidrolizlovchi yoki boshqacha aytganda katta substratlarni, masalan lipid, fosfolipidlarga ta'sir etuvchi ferment molekulalari nishon sifatida ishlatilganda yaxshi natija olish mumkin.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, aniqlanayotgan namunada antigen qanchalik ko'p bo'lsa, erkin holda qolgan antitanalardan

fermentni to'silishi shuncha kamayadi. YA'ni bunda fermentativ faollik aniqlanayotgan namunadagi antigenlar miqdoriga proporsional bo'ladi. Ekranlashtirish prinsipini katta antigenlarni aniqlashda qo'llash, masalan turli virus antigenlarini aniqlashda ishlatish yaxshi natija berishi amaliyotda kuzatilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, IETning metodlari antitanani antigen bilan spetsifik bog'lanishiga asoslangandir. Bunda komponentlardan biri ferment bilan nishonlanib, ma'lum xromogen substrat bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya natijasida olingan ma'lumotni spektrofotometrik usul bilan yoki bo'lmasa hosil bo'lgan rangli mahsulot asosida vizual ravishda aniqlash mumkin bo'ladi (1-rasm).




1-rasm. Immun reaksiyalarni spetsifik tarzda amalga oshish jarayoni.
1-antitalarni aniqlash

2-antigenlarni aniqlash

Antigen va antitalarni turli tashuvchilarga bog'lash imkoniyatini mavjudligi, immobillangan immun komponentlarni immunoenzim tahlilining geterogen usullarida keng ishlatilish mumkinligini ko'rsatdi.

Monoklonal antitalarni olish texnologiyasini ishlab chiqilishi esa, IET ni keyingi rivojlanishiga xizmat qildi, bu esa o'z navbatida uning spetsifikligi, sezgirligini va aniqlash darajasini yanada oshirish imkonini berdi.

IET nazariy jihatlarini zamonaviy immunoximiya, immunobiotexnologiya va enzimologiya ma'lumotlariga, shuningdek antigen-antitalar o'rtasida boradigan immunologik reaksiyalarning reaksiyasining fizik-kimyoviy qonuniyatlariga va analitik kimyoni asosiy prinsiplariga asoslangan. IETning sezgirligi va uni o'tkazilish jarayoni bir necha asosiy omillar bilan jumladan, antigen-antitana reaksiyasini kinetik, termodinamik xarakteristikalariga, reagentlar nisbati, fermentning faolligi va uni deteksiya qilish metodlarining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Umuman olganda, antigen-antitana o'rtasidagi reaksiyani sxematik tarzda quyidagicha tavsiflash mumkin:



Pastmolekulyar birikmalardan va yuqori murakkabroq tuzilishga ega virus va bakteriyalargacha bo'lgan xilma-xil tadqiqot ob'ektlarini IET yordamida aniqlash, ushbu metodni nihoyatda ko'p variantlarini ishlab chiqilishini taqozo etadi.

IETda kon'yugatlarni sintez qilishda tahlil uchun har tomonlama mos fermentlardan foydalaniladi. Bunda nishon sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan fermentlar eritma tarkibida o'zining faolligini namoyon qilishi kerak. Sababi, fermentning fermentativ faolligi qancha yuqori bo'lsa, sezgirlik ham shuncha oshadi. SHu sababdan, IETda nishon sifatida qo'llaniladigan fermentlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) Kichik konsentratsiyadagi molekulalarni aniqlash uchun qo'llaniladigan ferment yuqori spetsifiklikka va fermentativ faollikka ega bo'lishi kerak;
- 2) Nishon sifatida qo'llaniladigan fermentlar kimyoviy modifikatsiyadan so'ng, yuqori fermentativ faollikka ega bo'lishi kerak;
- 3) Fermentlar antigen va antitanalar ta'sirida, shuningdek, ular bilan kimyoviy bog' hosil qilganlarida ham, o'z barqarorliklarini yo'qotmasligi zarur;
- 4) ferment faolligini aniqlash usuli sodda va yuqori sezuvchanlik darajasiga ega bo'lgan usul bo'lishi kerak;
- 5) ferment preparati rangli mahsulot berishi kerak. Sababi IFAni miqdor, sifat jihatdan tahlil qilish mumkin.

IFA da 15 xildan kam bo'lmagan fermentlar ishlatilishi mumkin. YUqorida aytib o'tilgan talablarga javob bera oladigan va ko'p qo'llaniladigan ferment – xren peroksidazasi, ishqoriy fosfotaza va v-D-galaktozidaza. Mana shu uchta ferment barqaror bo'lib, yuqori sezuvchanlikka ega bo'lgan reaksiyalarni katalizlaydi. Bundan tashqari, shu fermentlar bilan katalizlanadigan reaksiyalar natijasida olinadigan mahsulotlar ishlatilayotgan substratga qarab nafaqat kolorimetrik metodlar, balki fluoressent metodlar bilan ham aniqlanishi mumkin. Boshqa fermentlar nisbatan kam ishlatiladi. Bu esa ularning xren peroksidazasi va ishqoriy fosfotazaga nisbatan ancha past solishtirma faolligi bilan tushuntiriladi.

Substratlar

Substratni tanlash birinchi navbatda nishon sifatida ishlatilayotgan ferment bilan belgilanadi, chunki ferment-substrat reaksiyasi yuqori spetsifikdir.

Substratga asosiy talablar:

- fermentni kon'yugatda aniqlashda metodni yuqori sezgirligini ta'minlash;
- ferment-substrat reaksiyasining aniq ko'rinadigan (masalan, bo'yalgan) mahsulotlarini hosil bo'lishi;
- substrat xavfsiz, arzon va ishlatish uchun qulay bo'lishi kerak⁷

Nazorat savollari:

- 1.Sendvich usulini mohiyati va qo'llanilishti
- 2.Fermentlar va ularning substratlari

⁷ Groves M.J. (ed.) "Pharmaceutical biotechnology"2-nd ed. Textbook. CRC Press Taylor & Francis Group, 2006. - 396 p.

3. Ekranlashtirish asosida antitanani miqdoriy tahlili
4. Raqobatlashish usuli asosida antigenlar tahlili
5. Effektorlar va ularning xususiyatlari

ESSE usuli

Bu usul ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish har tomonlama ko'rib chiqilmaguncha xotirada saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalashga imkon beradi. Biotexnologiya yo'nalishlari haqida **esse** usulida taxlil qilish.

Эссе усули

Эссе- французча тажриба, дастлабки лойиҳа, шахснинг бирор мавзуга оид ёзма равишда ифодаланган дастлабки мустақил эркин фикри. Бунда тингловчи ўзининг мавзу бўйича тассуротлари, ғояси ва қарашларини эркин тарзда баён қилади. Эссе ёзишда ҳаёлга келган дастлабки фикрларни зудлик билан қоғозга тушириш, иложи борида ручкани қоғоздан узмасдан – тўхтамасдан ёзиш, сўнгра матни қайта таҳлил қилиб, такомиллаштириш тавсия этилади. Мана шундагина ёзилган эссенинг ҳаққоний бўлиши эътироф этилган. Эссени муайян мавзу, таянч тушунча ёки эркин мавзуга бағишлаб ёзиш мақсадга мувофиқ. Баъзан, айниқса тарбиявий соатларда таълим олувчиларга ўзларига ёккан мавзу бўйича эссе ёздириш ҳам яхши натижа берали.

Mavzu-8: Immun reaksiyalarning spetsifikligi

Reja:

1. Spetsifiklik haqida tushuncha va uning immun tizimdagi roli
2. Fermentlar modulyatorlari
3. Kon'yugatlarni olish usullari
4. Kon'yugatlarni fiz-kimyoviy xususiyatlari

Immun reaksiyalarning spetsifikligi bir qator immunologik jarayonlarda namoyon bo'ladi. Masalan immunoenzim taxlilining g'mlgen usulari ham antigen va antitana spetsifikligiga asoslangandir. 1970 yillarning boshida Syva tadqiqotchilik institutida qiziqarli holat kuzatildi. Antigen-ferment kon'yugatini spetsifik antitelalar bilan bog'lanishining ba'zi holatlari fermentni katalitik faolligini (ko'payishi yoki kamayishi) o'zgarishiga olib keladi. Bu esa ferment molekulasini konformatsion o'zgarishlarini keltirib chiqaruvchi antitelalarni bevosita ta'siri bilan tushuntiriladi. Bu fenomen gomogen analizga asos soldi, va uning sxemasi maksimal sodda bo'ldi: ferment bilan nishonlangan antigenlar antitelalar bilan bog'lanish uchun tajriba namunalarining antigenlari bilan raqobatlashadigan barcha komponentlar suyuq fazada bo'ladi. Kon'yugatni antitelalar bilan bog'lanishi ferment aktivligini o'zgartirgani uchun bog'lanmagan antitelalarni yuvish va spetsifik antitelalarni qattiq fazaga immobillash zaruriyati yo'qoldi.

Gomogen metodlarni odatda past molekulyar (dori moddalari, narkotiklar, gormonlar va boshqalar) antigenlarni aniqlash uchun ishlatiladi, chunki ularni molekulyar strukturalari nisbatan katta bo'lmagan o'lchamlarga ega. Bu esa antitelalarni antigen-

ferment kon'yugati tarkibida bo'lgan fermentning katalitik aktivligiga boshqariluvchi ta'sirni ta'minlaydi.

70-80-yillarda gomogen immunoferment analizining bir qancha original modifikatsiyalari ishlab chiqilgan, va unda fermentlardan tashqari quyidagi nishonlardan foydalaniladi:


- fermentlar modulyatorlari;
- prostetik guruhlar;
- fluorogen substratlar;
- liposomalarga kiritilgan fermentlar;
- apofermentlar.

Bundan tashqari quyidagilar taklif qilindi:

- "ferment kanallari" sistemasi; unga substratni bir mahsulotga, keyin boshqasiga aylanishining ikki reaksiyani ketma-ketligini katalizlaydigan ikki ferment kiradi;
- Immunokapillyar migratsiya metodi; bu metodda g'ovaksimon tashuvchi ishlatiladi va unda ma'lum antigenni migratsiyasi amalga oshadi.

Ferment kanallari prinsipi va immunokapillyar migratsiyaning mosligi asosida fermentativ xromatografiya metodi yaratildi. Bu metodni ishlatilishi bilan maxsus laboratoriya uskunalarisiz ekspress-analizni o'tkazish uchun layoqatli bo'lgan qulay indikator chiziqlari ishlab chiqildi.

Gomogen immunoferment analizi (GIFA) – immunoferment analizining sodda turi hisoblanadi. Uni qo'yilishida immun reaksiyaning ishtirokchilaridan biri (odatda bu pastmolekulyar antigen) ferment bilan belgilanadi va antigen-antitela kompleksini shakllanishi jarayoni kuzatiladi, bunda ferment aktivligini o'zgarishi kuzatiladi. Fermentativ faollikni bunday buzilishi yo ferment va substratni fazoviy ajralishi hisobiga, yo immun kompleks shakllanishiga olib keluvchi ferment molekulasida konformatsion o'zgarishlar hisobiga kelib chiqishi mumkin. Gomogen immunoferment analizi boshqa immunokimyoviy metodlardan ko'ra bir qancha ustunliklarga ega. Birinchidan, yuqori ekspressiya (gomogen immunoferment analizi bilan bo'lgan butun analiz bir daqiqa va hatto undan ham kam bo'lgan vaqtini egallaydi) (1-rasm).




3-rasm. Gomogen immunoferment analizining turlari

A- antigen (AG) va antitela (AT)ni o'zaro ta'sirida ferment (F) va substrat (S)ni fazoviy to'siqlarlar hisobiga ajralish effekti.

B- antigen-antitela kompleksini shakllanishida ferment konformatsiyasini o'zgarish effekti.

Ikkinchidan, metod bir bosqichdan iborat hamda qiyin va vaqt talab qiluvchi yuvish bosqichlarini talab qilmaydi. Nihoyat, uchinchidan, metod biologik yoki klinik namunaning minimal hajmi (8-50 mkl) va miqdorini talab qiladi. Vaholanki, gomogen immunoferment analizida bitta kamchilik mavjud – uning asosida diagnostik analizlar faqat pastmolekulyar antigenlar ustidan amalga oshirish mumkin. Faqat bu holatda antitela antigen bilan o‘zaro ta’sirlashganda samarali ekranlashtirishi yoki shu antigen bilan bog‘langan fermentni modifikatsiyalashi mumkin. Aynan shu bilan bog‘liq ravishda, gomogen immunoferment analizi asosida faqat gormonlar, peptidlar, dori va narkotik moddalari hamda ba’zi pastmolekulyar oqsillarni aniqlash uchun diagnostikumlar yaratildi.

Qattiq fazada antigen immobillangan. CHO‘ntakchaga shu antigenni ferment bilan kon’yugatni va tekshirilayotgan zardob kiritiladi. Tajriba namunasida spetsifik antitelalar bo‘lsa, ular murakkab kompleks hosil qiladi: shu bilan bir vaqtda qattiq va suyuq (eritmada) fazalardagi antigenlar bilan bog‘lanadi. Antitelalarni kon’yugat bilan bog‘lanishida ferment aktivligi o‘zgaradi (2-rasm).



2-rasm. Antitelalar aniqlashning gomogen metodi.

Belgilar:

- qattiq fazaga immobillangan antigen
- aniqlanayotgan zardobni spetsifik antitelasi;
- aniqlanayotgan zardobni ballast moddalari;
- ferment bilan nishonlangan antigen;
- fermentni yuqori aktivligi;
- fermentning past aktivligi.

Immunoanalizning gomogen immunoferment analizi metodlari tibbiyot amaliyotida keng tarqalgan. Zamonaviy tibbiyotning barcha sohalarida immunoanaliz, ayniqsa, diagnostik va analitik maqsadda ishlatiladi. SHunisi muhimki, ular past va juda past konsentratsiyadagi biologik komponentlar (gormonlar, fermentlar, neuropeptidlar, immun sistema mahsulotlari, antigenlar va boshqalar)ni aniqlash imkonini beradi. Antitelalar olish mumkin bo‘lgan barcha mahsulotlar shu metodlar bilan aniqlanadi.

Immunanaliz antigen (AG) va antitela (AT)ni o‘zaro ta’siriga asoslangan bo‘lib, bunda komponentlardan biri (ferment, radionuklid, fluoressent bo‘yoq va boshqalar)ni turli nishonlash variantlaridan foydalaniladi. Reaksiyani baholash maxsus uskunada avtomatik amalga oshiriladi, bu esa shu metodlarni standartlashtirishga imkon beradi. Nishon va testni qo‘yish Ishlatilayotgan sharoitlariga qarab immun analiz immunoferment (IFA), radioimmun (RIA), immunofluoressent va hokazo tarzda belgilanadi. Reaksiyalarni bitta yoki bir necha bosqichlarda qo‘yilishida ular to‘g‘ri va to‘g‘ri bo‘lmagan reaksiyalar

sifatida belgilanadi. Reaksiya o'tkazilayotgan muhit ham ahamiyatga ega. Agar reaksiya yuzada fiksirlangan reagentlar bilan o'tkazilsa, u holda test qattiq fazali, masalan ELISA (enzyme linked immunosorbent assay) deb belgilanadi.

Bu usulni quyidagi guruxlarga bo'lish mumkin. I. Ligand-ferment tipidagi kon'yugatlarni olish va kullash metodlari to'g'ri keladigan ferment bilan aniklashga tegishli antigen kon'yugantini kovalent bog'lanish yuli bilan olinadi.

Ferment bilan nishonlangan antigen so'vli eritmada aniklanadigan antigen bilan antitelani bog'lanishi uchun rakobatlashadi. Kupincha sterik xarakterdagi kiyinchiliklar yoki fermentni ingibitorlaydigan allosterik uzaro ta'sir natijasida xosi bo'lgan immun kompleks katalitik aktivlikka ega bo'lmaydi. SHunga kura bog'lanmagan kon'yugatlarni umumiy aktivligini to'g'ridan-to'g'ri aniklanayotgan antigenlarni miqdori belgilashga imkon beradi.

Ba'zi xollarda pretsipitanti katalitik aktivlikka ega bulca, aniklash oldindan kolibrovkali jadval tuzish yoki eruvchan antigen ferment

kon'yugatini xar xil alikvotalarini kiritish bilan grafiklardagi antitela antigendan foydalaniladi.

Fermentni nishonlangan sorbentlari liganda larini kullash, Fermentativ reaksiyalarni substratlari xam belgi sifatidit ishtirok etish mumkin. Agar fermentning substrati antigen bilan boglanishga kodir gruppalar tutgan bulsa va a gar bunday boglanishlardan keyin ferment substrat uzaro ta'sirlanish mukarrarligi saklansa, unda substrat - antigen tipidagi kon'yugatlar xam gomogen immunoferment ankilashda uz urnini topa oladi. Antigen bilan bog'langan substrat antiteloni borligida yoki yugligida xam uz fermenti uchun xilma-xil darajada etishadi. SHunga kura immun reaksiya utgandan keyin va antitela nishonlangan substrat - antigen kompleksi xosil bulgandan so'ng, ferment bu substrat bilan uz aktivligini birdan kamaytiradi.

Oldindan ma'lum miqdorda fermentolinib, sung aktivligi - antitelolar ishtirokisiz ulchanadi. Namunada fermentativ reaksiya utkaziladi va oldindan tanlangan tanlangan antitelo miqdori ishtirokida uni kechish tezligi ulchanadi. Reaksiya tezligining fark iga kura, bu xolda aniklanaetgan namunadagi nishonlanmagan antigenlar miqdoriga tug'ri proporsional.(antigen)

Gibridom texnologiyalar asosida juda katta bo'lgan miqdorda gomogen antitanalarni ma'lum antigenga nisbatan ishlab chiqarish mumkin. Sichqonda shish hosil qilish uchun uning qorin bo'shlig'iga mineral yog' yoki inert qattiq plastik – kanserogen moddalar yuboriladi. Buning natijasida shish hosil bo'ladi. Tadqiqot ishlari inbred sichqonlar liniyasida amalga oshiriladi. Sichqonlar mieloma hujayralari gibridom hujayra olish uchun qulay hisoblanadi. Biroq sichqonlarda mieloma hosil qilish ancha mushkul ish hisoblanadi. Gibridom hujayra olishni spontan usuli ham mavjud bo'lib, bunda somatik hujayralar gibrida tetraploid, diploidlar, ya'ni geterokarionlar hosil bo'ladi. So'ngra bir nechta yadrolar birlashib bitta yadroni hosil qiladi. Natijada hujayra xromosomalarini birlashtirgan gibrid hujayra hosil bo'ladi. Hujayralarni qo'shilish chastotasini ko'tarish uchun quyidagi agentlar kerak:

1. virus Senday – hujayrani yorib kirish xususiyatiga ega;
2. lizoletsitin;
3. polietilenglikol



1-rasm. Gibridom texnologiya asosida gibrid hujayra olish: (1) hayvonlarni immunizatsiyalash;

(2) taloqdan V-limfotsitlarni ajratib olish;

(3) mieloma hujayralari kulturasini;

(4) V-limfotsitlar va mieloma hujayralarini qo'shilishi;

(5) hujayra liniyalarini sekretsiyasi;

(6) antitanalar ishlab chiqaruvchi liniyalarni skrining va seleksiyasi;

(7) gibridomani in vitro (a) yoki in vivo (b) ko'payishi;

(8) antitanalarni olinishi.

Nazorat savollari:

1. Monoklonal antitanalar olishda dastlabki hujayralar sifatida qanday hujayralar ishlatiladi?
2. Monoklonal antitanalar olish jarayonining bosqichlarini tushuntiring
3. Hujayralarni miqdoriy iahlili qanday amalga oshiriladi?
4. Hujayralarga GAT

sistemani ta'sirini tuo'untiring

5. Monoklonal antitanalarni qo'llanilishi va ahamiyatini tushuntiring

Mavzu-14: Monoklonal antitanalarni saralash

Reja:

1. Gibrid hujayra olishda mielomlarning roli
2. YUqumli kasalliklarda monoklonal hujayraning ahamiyati
3. Gipoksantin-guanin-difosriboziltransferaza fermentining vazifalari.
4. T-nulinchi hujayralarni xususiyatlari

YUqorida qayd etilganidek, ba'zi moddalar hujayralar qo'shilishini to'liq ta'minlamaydi. Gibrid hujayralarning ko'payishi, o'sishi, seleksiyasi uchun oziqa muhiti muhim rol o'ynaydi. Gibrid hujayra olishda mielomli hujayralarda gipoksantin-guanin-difosriboziltransferaza (GGFRT) fermentini kodlovchi gen repressiya qilinishi zarur.

Mielomli hujayralar muhitida GGFRT bo'lmaganligi uchun halok bo'ladi. Normal hujayralarda bu ferment bo'lsa ham, ular ko'paya olmaydilar, natijada ular ham halok bo'ladi. Gibrid hujayralarni seleksiya qilishda GAT (gipoksantin, amidopterin, timidin) oziqa muhiti ham ishlatiladi. Bu holda ham mutant, ya'ni gibrid hujayralar GAT muhitida faoliyat ko'rsatadi, normal va mielom hujayralar esa halok bo'ladi. Hosil bo'lgan girid hujayra klonlaridan maqsadli antigenlar uchun monoklonal antitanalar ajratiladi. Ajratilgan monoklonal antitanalar diagnostikada keng qo'llaniladi. Buning sababi. ularning sezgirligi, spetsifikligi o'ta yuqori bo'lishidadir. Ma'lumki, organizmada immunologik reaksiyalarda ishtirok etuvchi T-hujayralarning bir necha turlari mavjud: T-xelperlar, T-supressorlar, T-kuchaytiruvchilar, T-effektorlar, T-normal killerlar, T-tabiiy killerlar, T-nulinchil hujayralar. T-xelperlar turli immunologik reaksiyalarni o'tkazilishida yordamchi hujayra sifatida muhim rol o'ynaydigan hujayralar hisoblanadi. T-supressorlar esa immunologik reaksiyalarni boshqaradigan hujayralar bo'lib, asosan immunologik reaksiyani to'xtatish funksiyasini bajaradi. Hozirgi kunda ushbu hujayralarning markerlariga spetsifik monoklonal antitanalar olingan. Ushbu antitanalar T-hujayra tiplarini aniqlashda keng qo'llanilmoqda. Quyida organizmda immunokompetent hujayralar yordamida antitana sintezi ko'rsatilgan:

$Th1 + AG + Makrofaq + V\text{-limfotsit} \rightarrow AT$ ishlab chiqariladi.

$Th2 + Makrofaq + V\text{-limfotsit} \rightarrow AT$ ishlab chiqariladi.

Yuqorida keltirilgan reaksiya jarayonidan ko'rinib turibdiki, organizmda antitana sintez bo'lishida immunokompetent hujayralarning roli juda katta. Biroq ushbu reaksiya asosida hosil bo'layotgan antitanalar poliklonal antitanalar hisoblanadi. Poliklonal antitanalar spetsifikligi jihatidan monoklonal antitanalardan ancha past hisoblanadi. SHuning uchun monoklonal antitanalar diagnostikada keng qo'llanilib, virus gepatitini A, B, C, D formalarini ham aniqlashda, SPID virusini, tuberkulyoz kasalligini aniqlashda va boshqa turli kasalliklarda keng qo'llaniladi. Ma'lumki, hujayra membranasida hujayraning differensirovkasida ishtirok etadigan oqsil-determinantlari mavjuddir. Ularni identifikatsiyasi monoklonal antitanalar orqali amalga oshirilmoqda. Ko'rsatilgan usul orqali inson hujayrasining differensirovkasi, jumladan, fibroblastlar va asab to'qimalarining shakllanishi aniqlangan. Monoklonal antitanalar biotexnologiyaning affin xromatografiyasida ligand sifatida foydalaniladi. Masalan, monoklonal antitanalar asosida, 500 marta tozalangan interferon olish usuli ishlangan. Monoklonal antitanalar yordamida oqsil, toksin, gormon va boshqa moddalarning gomogen preparatlarini olish mumkin. Tibbiyotda monoklonal antitanalar turli kasalliklarni IET yordamida aniqlashda ishlatilmoqda. Bakteriyali kasalliklardan koklar, parazitli infeksiyalar, bezgak va boshqa turdagi ko'pgina kasalliklarga tashhis qo'yishda monoklonal antitanalar qo'llaniladi. Monoklonal antitanalar individual yoki terapevtik maqsadlarda ham foydalanilmoqda. Radioaktiv moddalar bilan nishonlangan monoklonal antitanalar selektiv ravishda rak hujayralari retseptorlari bilan bog'lanib, to'qimalarning ko'payishini sekinlashtiradi yoki to'xtatadi. Monoklonal antitanalarni xavfli shish kasalliklariga qarshi ishlatiladigan sitotoksik moddalar bilan bog'lab, ularni rak hujayralarga yo'naltirish orqali kasallikni davolash ishlari amalga oshiriladi. Hozirgi kunda ayrim tabiiy toksinlarni modifikatsiya qilish orqali, spetsifik immunotoksinlar olinib, ular yordamida rak hujayralarini rivojlanishi to'xtatilmoqda. Masalan, kanakunjut urug'ida uchraydigan ritsin degan toksin ikkita polipeptid zanjiridan iborat. Polipeptidning A-zanjiri toksik xususiyatga ega, uning 2- V- zanjiri galaktoza ishtirokida hujayra membranasiga bog'lanadi. Natijada, A-zanjir dissotsiyalanib, hujayra ichkarisiga kirib, oqsil sintezini to'xtatadi. Polipeptidning V-zanjirini mkAT bilan almashtirib, hosil bo'lgan immunotoksinni xavfli shish hujayralarini davolashda ishlatish mumkin.

Hozirgi kunda AQSH va Evropaning farmatsevtik firmalari monoklonal antitanalarni ko'p miqdorda ishlab chiqarmoqda. Ular kasalliklarda, laboratoriya amaliyotlarida va ilmiy-tadqiqot izlanishlarini olib borishda keng qo'llanilmoqda.¹¹

Nazorat savollari

1. Gibridd hujayra olishda mielomlarning roli nimada?
2. YUqumli kasalliklarda monoklonal hujayraning ishlatilishi
3. Gipoksantin-guanin-difosriboziltransferaza fermentining qanday vazifalarni bajaradi
4. T-nulinch hujayralarni xususiyatlarini tushuntiring

Mavzu-15: Immunovaksinalar olish texnologiyasi

Reja:

1. Vaksinalarni olish usulari
2. Vaksinalarni olishda unga qo'yiladigan talablar
3. Gen muxandisligi asosida olinadigan vaksinalar
4. Transformatsiya jarayoni
5. Transgenoz jarayoni haqida tushuncha

Immunovaksinalar olish texnologiyasi gen muxandisligi rivojlanishin bilan bugungi kunda katta imkoniyatlarni qo'lga kiritmoqda. Yirik strukturaviy genlarni sintezlash mumkin ekanligi amaliy tadqiqotlar orqali yorqin ko'rsatilib berildi. Lekin kDNKdagi strukturaviy genlar funksiyasining amalga oshirishini ta'min etuvchi regulator genlarni bu metod yordamida sun'iy sintezlash ancha qiyinchilik bilan amalga oshirilishligi ham ko'rsatildi. Bayon etilgan sabablarga binoan gen injeneriyasida ko'pincha transgenoz uchun qulay bo'lgan ob'ekt bo'lmish donor organizmdan ajratib olingan tabiiy genlar ishlatiladi.

Transgenoz jarayonida donorning muayyan geniga ega bo'lgan vektorning rekombinant (duragay) DNKsini retsipient organizmga kiritish va uning DNKsiga ko'chirilayotgan genni ulash va uning o'z funksiyasini normal bajarishini ta'min etish yotadi.. Buning uchun: a) duragay DNKga ega bo'lgan vektor - viruslar retsipient bakteriyalari tanasiga kiritiladi; b) retsipient bakteriyalar tanlab ajratish muhiti sharoitida o'stiriladi. Selektiv muhit retsipient bakteriyalarning o'sishi uchun maxsus tayyorlangan oziqa modda bo'lib unga ushbu bakteriya shtammi chidamsiz bo'lgan antibiotik yoki pestitsid qo'shiladi. Eslatib o'tamiz, donor bakteriya ushbu antibiotik yoki pestitsidlarga chidamlilik geniga ega; v) selektiv muhit sharoitida genomiga retsipientning chidamlilik geni donorning DNKsiga ulangan bo'lsa u bakteriyalar nobud bo'lmaydilar, yashab ko'payishlari mumkin. Demak, uning genomiga vektor - plazmidaning haqiqiy rekombinant DNKdagi retsipientning muayyan antibiotik yoki pestitsidga chidamlilik geni o'tgan. Qolgan bakteriyalar, jumladan donorning bayon etilgan geni yo'q DNK qismlari bilan olingan duragay DNK o'tgan bakteriyalarning hammasi nobud bo'lib ketadi; g) nobud bo'lmay yashab qolgan bakteriyalarni ko'paytirish jarayonida rekombinant DNK molekulasi va undagi transgenoz qilingan gen ko'paytiriladi. Chunki ularda replikasiya namoyon bo'ladi. Shunday yo'l bilan bu molekullar klonlashtiriladi (ko'paytiriladi). Yuqorida bayon etilgan transgenoz natijasida muayyan antibiotikka yoki pestitsidga chidamlilik geni donor bakteriyalardan retsipient bakteriyaga rekombinant DNK molekulalari orqali o'tkazildi ya'ni **transformatsiya** qilindi. Oqibatda retsipient bakteriya ham donorga o'xshash muayyan antibiotik yoki pestitsidga chidamlilik xususiyatiga ega bo'ladi.

¹¹ B.Glik, Dj.Pasternak «Molekulyarnaya biotexnologiya: Prinsipi i primeneniye» Per.s angl.-M.: Mir, 2002g.- 589str

Rekombinant kDNK yaratish va uni klonlashtirish va undagi donor genni vektor orqali retsipient organizmga transgenoz qilish sohasida gen injeneriyasi qator yutuqlarga erishdi. Endi vaksina sifatida ishlatiladigan moddani sintezlovchi genni prokariot organizm bo'lgan ichak tayoqchasi bakteriyasi *E.coli* ga o'tkazib transgenoz qilish metodi bilan mukammal tanishamiz. Bu jarayon quyidagi to'rtta bosqich orqali amalga oshiriladi

1) Vaksina sifatida ishlatish mumkin bo'lgan moddani sintezlovchi genni ma'lum man'badan ajratib olish. Ushbu bosqich prokariotlarnikiga nisbatan anchagina murakkab metodlar orqali amalga oshiriladi. Buning uchun quyidagi metodlardan muayyan tartibda foydalaniladi: 1) Birinchi metod uch bosqichda amalga oshiriladi: a) vaksina sifatida ishlatiladigan oqsilni sintezlovchi iRNK molekulasidan mumkin qadar ko'proq ajratib olinadi; b) teskari transkriptaza fermenti yordamida bu iRNK andozasi negizida komplementar DNK ya'ni k-DNK sintezlanadi. K-DNK donor organizmi DNKsidagi genlarining iRNK kodlangan qismini o'zida kodlagan bo'ladi; v) kDNK restriktaza fermenti ta'sirida ko'p qismlarga bo'linadi. Eritmada shunday holatga keltirilgan kDNK plazmida - vektorlar DNKsi bilan integratsiya qilinishga tayyor hisoblanadi.

2) Vektorlik vazifasini bajaruvchi plazmidaning halqasimon shakldagi DNKsi restriktaza fermenti ta'sirida bir joyidan uzilib uzunchoq holatga keltiriladi. SHunday DNKga ega bo'lgan plazmida vektorlik vazifasini bajarishga tayyor hisoblanadi.

3) Rekombinant (duragay) DNKni yaratish. Buning uchun donor organizmning parchalangan kDNKsi joylashgan eritmaga DNKsi uzunchoq holatga keltirilgan plazmidalar hamda kDNKning parchalangan bo'lak-larini plazmida DNKlariga ulaydigan ligaza fermenti qo'shiladi. SHunday sharoitda plazmidalar DNKsi rekombinatsiya jarayonida kDNK parchalarini ligaza fermenti yordamida ulab rekombinant (duragay) DNK molekulalari hosil qilinadi. SHunday holatda o'zining DNKsida kDNK parchalariga ega bo'lgan plazmidalar hosil bo'ladi. Ularni ikkita guruhga bo'lish mumkin. Ularning birinchi guruhi haqiqiy rekombinant kDNKli plazmidalar. Ular DNKsiga transgenoz qilinishi kerak bo'lgan gen joylangan kDNK bo'lagi joylashgan bo'ladi. Ikkinchi guruhi qalbaki rekombinant DNKli viruslar. Ularda kDNKning o'sha gen joylashmagan bo'lagi ulangan bo'ladi. Haqiqiy (duragay) kDNK vazifasini birinchi guruhga mansub plazmidalar bajaradi.

4) Rekombinant kDNKning vaksina oqsilini sintezlovchi geni joylashgan qismi ichak tayoqchasi bakteriyasi (*E.coli*) genotipiga o'tkazilib ulanadi va uning faoliyati uchun zarur sharoit yaratiladi. Natijada *E.coli* ning transgenoz shtammi yaratiladi va u laboratoriya sharoitida vaksina oqsilini sintezlay boshlaydi.

Nazorat savollari

1. Vaksinalarni olishning qanday usularini bilasiz?
2. Vaksinalarni olishda unga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Gen muxandisligi asosida olinadigan vaksinalarni tushuntiring
4. Transformatsiya jarayoni nima?
5. Transgenoz jarayoni haqida tushuncha bering

Mavzu-16: Immunovaksinalarni ahamiyati

Reja:

1. Immunovaksinalar haqida tushuncha
2. Immun sistemaga vaksinani ta'siri
3. Immunovaksinalarni saqlash
4. Sun'iy vaksinalar

Gen injeneriyasi metodlarining jadal rivojlanishi natijasida ba'zi hayvonlar (sichqon, quyon) ning va odamning ko'p oqsil genlarining hamda ribosoma va transport

tRNK genlarining klonlari olindi. Odamda gen injeneriyasini qo'llash sohasidagi tadqiqotlar natijasida odamning insulin (diabetni davolaydi), o'sish gormoni (pakanalikni davolaydi), interferon (virus qo'zg'atadigan kasalliklarni davolaydi), sun'iy sintezlash yo'li bilan odamlarning V – gepatit deb nomlangan sariq kasalliga qarshi ishlatiladigan vaksina genlarini klonlashtirib, odamning ichaklaridagi foydali ichak tayoqchasi bakteriyalari genotipiga o'tkazildi va bu genlarning ekspressiyasi ya'ni muayyan oqsilni laboratoriya sharoitida sintez qilishiga erishildi. Gen injeneriyasi metodi bilan olingan bu immunobiologik faol dori preparatlardan insulin klinikada sinallib tibbiyot sanoati darajasida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'sish gormoni, interferon, V gepatitiga qarshi vaksina klinikada ishlatilmoqda. Odamning A va V deb ifodalangan gemofiliya kasali genlarining klonlashtirish bosqichi samarali amalga oshirildi.

Organizmda vaksinalarni axamiyati juda kattadir. Organizmni turli patogen mikroblardan qo'riqlab turishda, ya'ni organizmda immunitet hosil bo'lishida asosan organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlari sababchidir. Odamning terisi, shilliq pardalar, limfatik bezlar, oshqozondagi NSL, jigarda hosil bo'ladigan o't va boshqalar organizmni miqdordan saqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Organizmda immunitetning hosil bo'lishiga tashqi muhit ham ta'sir qiladi. Masalan, organizmning qizishi, juda sovushi va kuchsizlanishi ham organizmda kasallikka qarshi chidamli moddalarning ishlab chiqarilishini pasaytiradi. Organizmning javob reaksiyalari turlicha bo'lishi mumkin. Javob reaksiyalarining darajasi immun sistemani tashkil qilgan limfoid organlar funksiyalari bilan belgilanadi. Organizmga tushgan yot moddaning antigenligi unga qarshi hosil bo'lgan antitanani hosil bo'lish miqdori bilan belgilanadi. SHu sababli yot modda antitana hosil qila olsa, ushbu moddaning antigenlik xususiyati bo'ladi. Immunogenlik bu organizmning immunitet hosil qila olish qobiliyati (kasallanish darajasi).

Immunitet to'g'risidagi dastlabki farazlar 430-yillarga borib etadi. SHu davrda vabo bilan kasallangan odam 2-marta ushbu kasallik bilan qayta kasallanmasligini Prokopi aniqlagan. 500-530 yillarda musulmon vrachi Rozes ilmiy jihatdan o'rganib, quyidagicha xulosaga kelgan: qari odamning qonida suv miqdori kam bo'lganligi uchun infeksiya yuqmaydi, yosh odam organizmida esa aksincha qoni tarkibida suv ko'p bo'lganligi uchun kasallanish darajasi ko'proq bo'ladi. Ushbu fikrlar o'sha paytda o'z ilmiy asoslariga ega bo'lgan.

SHarqning buyuk mutafakkir olimi Ibn Sino ham o'sha vaqtlardayoq yuqumli kasalliklarning mayda, ko'zga ko'rinmas tirik mavjudotlar (mikroorganizmlar) orqali yuqishini aniqlagan. 1798-yili Edvard Djenner ismli olim 1-bo'lib suvchechak kasalligiga qarshi vaksina yaratdi. U suvchechakning suvini olib kumushdan yasalgan trubka orqali odamning burniga yoki biror qismini ozgina kesib, shu joyga yuborgan. SHundan so'ng, inokulyasiya so'zi vaksinatsiya so'zi bilan almashtirilgan. Biroq Edvard Djenner barcha yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinalar yaratish mumkinligi to'g'risidagi nazariyaning muallifi hisoblanmaydi.

Vaksina bilan sun'iy immunitet hosil qilishni vaksinatsiya yoki emlash deyiladi. Vaksina deb o'ldirilgan yoki tirik, lekin kuchsizlantirilgan mikrobdan iborat biologik moddaga aytiladi. Vaksina bakteriologik institutlarning maxsus laboratoriyalarida tayyorlanadi. Vaksina olish uchun mikrobyuq yoki suyuq ovqatda o'stiriladi. Organizmga vaksina yuborib suniy immunitet hosil qilish kuchli va uzoq vaqt davom etadi. Masalan, buzoqlarning parativ kasalligiga qarshi vaksina olti oylik kuydirgi kasalligiga qarshi vaksina bir yillik immunitet hosil qiladi.¹²

¹² Давронов Қ. Биотехнология: илмий, амалий ва услубий асослари. Тошкент. 2008 й. 506б.

Nazorat savollari:

- 1.Immunovaksinalar haqida tushuncha bering
- 2.Immun sistemaga vaksinalar qanlay ta'sir etadi?
- 3.Immunovaksinalarni saqlashda nimalarga ahamiyat brish talab etiladi?
- 4.Sun'iy vaksinalar olish texnologiyasini tushuntiring

Mavzu-17: Bioreaktorlar

Reja:

- 1.Bioreaktorlar va ularning roli
- 2.Bioreaktorda boradigan turli jarayonlar bosqichlari
3. Mikroorganizmlarni ishlatilishi va aeratsiya
4. Kulturalash jarayonining avtomatizatsiyalash

Hozirgi kunda biotexnologiyaning turli soxalarida, ishlab chiqarishda turli fermentativ apparatlar ishlatilmoqda, barcha foydalanilayotgan bioreaktorlarda fizik jarayon (gidromexanik, issiqlik va massaalmashinuv)lar ro'y beradi, shuning uchun bioreaktorlarda biokiyoviy jarayon – moddalar xosil bo'lishi yuz beradi. Bunday fizik jarayonlar sodir bo'lishi uchun biokimyoviy reaktorlar tipik konstruksiya elementlari (aralashtirgich, kontakt uskunalar, issiqlikalmashinuvchi uskunalar, dispergatorlar va b) bilan ta'mirlanadi. SHuning uchun barcha fermentlar kompleks apparatlar xisoblanadi.

Turli konstruksiyali fermentlarning barchasi xujayra kulturlash jarayonining asosiy talablariga javob berishi kerak:

- barcha oziq moddalarning har biri xujayraga kerakli miqdorda etib kelishi;
- metabolizm maxsulotlarining xar bir xujayradan chetlanishi;
- xar bir nuqtada mikrob suspenziyasining termostatlanishi;
- xar bir nuqtadagi optimal ishchi parametrlarini ushlab turish;
- talab etilgan aeratsiya, aralashtirish darajasi;
- kulturlash jarayonining avtomatizatsiyalashning yuqori darajasi;
- texnika xavfsizligi.

Bu talablarni bajarish uchun xar bir fermentyor quydagi sistemalar bilan jixozlangan bo'lishi kerak:

- gaz oqimining kirish va chiqishi;
- fermentatsion muhit aeratsiyasi;
- fermentatsion muhitni aralashtirish;
- fermentatsion muhitni kupiksizlantirish;
- fermentyor va fermentatsion muxitni sterillash;
- apparatdan suyuq (yoki sochiluvchan) oqimni chiqarib yuborish;
- jarayonga berilgan parametrlarni nazorat qilish va rostlash.

Fermentatsion muxitning aeratsiyalash- Aerob mikroorganizmlarni bioreaktorda chuqur kulturatsiyalash uchun eng avvalo gazli fazadan xujayralarga kislorod massa uzatish intensivligini ta'minlash zarur. Bunga albatta aktiv aeratsiyalash va aralashtirish yo'li bilan erishish mumkin.

Apparatlardagi fermentatsion muxitni aeratsiyalash va aralashtirish funksiyalari bir uskunada birlashtirilgan bo'lsada, har birining roli boshqa-boshqadir. Fermentyorlarda aralashtirishdan maqsad quydagi keltirilgan vazifalarni bajarishdir

- gaz-suyuqlik va suyuqlik xujayra massauzatish intensivfikatsiyasi;
- termostatlanayotgan muxitga issiqlik uzatish intensify
- gaz pufakchalari va suyuqlik tomchilarining disperslanishi;
- aralashtirilayotgan muxit hajmidagi haroratning tenglashtirilishi;
- muxit hajmidagi moddalar konsentratsiyasining tenglashtirilishi.

odir bo'ladi:

Fermentyorlarning sterillash va aseptik xolatini saqlash.

Aseptik kulturalash (ustirish) ni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy talablarni bajarish kerak:

- fermentatsion uskunalarning barcha elementlar va bulimlarini sterilizatsiyasi va germetikligini ta'minlash;
- kulturalash jarayonining boshlanishidan oxirigacha aseptik xolatini saklash;
- fermentyorga steril xoldagi kattik, sochiluvchan suyuq va gaz okimini kiritish.

Kattik sochiluvchan muxitni sterilizatsiyalash uchun issiqlik bilan birga «sovuk» sterillash metodi va davriy yoki uzluksiz rejimdan foydalaniladi.

Issiqlik metodiga quyidagilar ta'lukli:

- suv bugi yordamida sterillash (yopik (gluxoy) yoki utkir bug turlicha bosimda)
- muxitni elektr isitish yuli bilan sterillash;
- infrakizil nurlar yordamida sterillash;
- yukori chastotali va SVCH yordamida sterillash.


Sterilizatsiya usullariga quyidagilar kiradi:

- ionlashgan nurlanish;
- ultratortuvchi ta'siri;
- kimyoviy reagentlarning ta'siri;
- ultrabinafsha nurlanish.

Sterilizatsiyalash jarayonini olib borish uchun suv bugi yordamida sterilizatsiyalash metodi kulay xisoblanadi va u quyidagi talablarga javob beradi:

- oson transportlanadi;
- etib borishi kiyin bulagan joylarga oson kirib boradi;
- kondensatsiya paytida yukori issiqlik kaytarish xususiyatiga ega;
- mikroorganizm va personal uchun zararli emas;
- arzon;
- ozika muxiti tarkibiga zarar etkazmaydi;

Suyuq muxitni sterillash uchun kupincha uzluksiz rejimda ishlaydigan sterilizatsiyalash uskunalaridan foydalaniladi. Ularda asosiy bulim (uzel) isitish kolonkalari xisoblanib muxitni tez sterilizatsiyalash xaroratigacha kizdirib beradi.



Fermentyorlarda issiqlik almashinishi.

Fermentyorlardan issiqlikni effektiv chiqarish uchun progress texnik va texnologik nazariy xulosalarga tayangan xolda, apparatni tugri ekspluatatsiya qilish zarur. SHuning uchun apparatning issiqlik balansini xisoblanayotganda issiqlik almashinish uskunalaridagi yuklama maksimal darajada bo'lishi kerak.

Kulturalanayotgan muxitga berilayotgan xarorat mikroorganizmlarning fiziologik holati tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan mikroorganizmlarning o'sishi tezligiga ta'sir etadi. Ma'lumki, xar bir produtsent uchun o'stirishning optimal xarorati mavjud. SHuning uchun ishlab chiqarishda xaroratni ± 1 S da ushlab turiladi. Biroq ba'zi bir xolatlarda xaroratni rostlashning bunday rostlashning o'zi etarli emas.

Kulturlash jarayoning optimal xaroratini ta'minlash mushkul texnik muammo xisoblanadi. Amaliyotda issiqlik ajratish jarayoni katta sarmoya talab etadi va murakkab sistemali issiqlik qaytarish uchun asosan apparat issiqlik yuklamasini xajmiga qarab korpusining sirt qismi, shu bilan birgalikda ichki funksional konstruksiyalar yoki issiqlik almashtirgichlardan foydalaniladi.

Fermentyorni tashqaridan sovitish (isitish) jarayoni ko'p xollarda apparat rubashkasi orqali amalga oshiriladi, bu biotexnologiya yoki boshqa soxalarda issiqlik almashinish jarayonining keng tarqalgan usuli xisoblanadi. Jarayonning asosiy xususiyati shundaki, bunday tipdagi issiqlik almashinuvchi uskunalarda apparat ichki xajmidagi konstruktiv elementlar bo'lmaydi, aynan shu narsa fermentyorni ekspluatatsiya qilishni engillashtiradi va ishchi xajmning sodda xoldagi va ishonchi germetikligini ta'minlaydi.

Issiqlik ajratish yuqori bo'lganda turli xildagi qurilgan issiqlik almashtirgichlar qo'llaniladi. Fermentyorlarda ichki issiqlik almashinish uskunalari sifatida zmeevikli uskunalardan foydalaniladi. $5m^3$ xajmli apparatlarda bir dona zmeevik apparat markaziy qismiga o'rnatiladi. Xajm jixatdan yanada kattaroq bulgan apparatlarda bir nechta zmeevik aralashtirish bo'yicha o'rnatilib qaytaruvchi to'siqlar funksiyasini bajaradi.

6) Fermentyorlarda ko'pik xosil qilish va ko'piksizlantirish.

Ko'p fazali geterogen texnologik jarayon gazli faza xisobida gidrodinamik sharoitda ko'pincha ko'pik xosil qilishga olib keladi. Ko'pik xosil qilinishi suyuq fazadagi sirt-aktiv moddalari (YU.A.M) tufayli sodir bo'ladi. O'z navbatida ular sirt taranglikni tez kamaytirib, gaz va suyuqlikdan iborat sirt bo'limlari turgunligini oshiradi.

Gaz pufakchalarini bunday suyuqlik qatlamidan o'tishi natijasida pufakchalar plyonkasining stabilizatsiyasi sodir bo'ladi va ko'pik xosil bo'lishiga olib keladi(toza suyuqlik amaliyotda ko'pik xosil qilmaydi).¹³

Ko'pik-murakkab fizik-kimyoviy sistema xisoblanadi. Ko'piksizlantirish jarayonining vazifasi ko'p qirrali bo'lib, uni ko'piksizlantirish mexanizmi va kinetikasini bilmay turib, uni echish (o'rganish) mumkin emas. Xosil bo'lgan ko'pikni reaksion apparatdan chiqarib yuborish uchun bir nechta usullardan foydalaniladi:

1)fizik)

2) fizik-kimyoviy

3)texnologik


4) kombinirlangan.

¹³ Комилов Х.М., Рахимов М.М., Д.Ю. Одилбекова Биотехнология асослари. Тошкент. EXTREMUM PRESS, 2010.477 б.

Nazorat savollari:

1. Bioreaktorlar va ularning roli nimada?
2. Bioreaktorda boradigan turli jarayonlar qanday biotexnologik bosqichlarni o'z ichiga oladi?
3. Mikroorganizmlarni ishlatilishi va aeratsiya haqida tushuncha bering
4. Kulturalash jarayonining avtomatizatsiyalash qanday amalga oshiriladi?

Klaster usuli



Mavzu-18: Bioreaktorlarni ishlatilishi

Reja:

1. Fermentatsion jarayon haqida tushuncha
2. Fermentyornlarni qo'llanilishi
- 3 Xujayra metabolizmiga ta'sir etuvchi omillar
4. Fermentatsiya uskunasini konstruksiyasiga qo'yilgan talablar

Bioreaktorlar turli soxalarda keng qo'llaniladi. YUqorida qayd etilganidek, fermenterlarni mikroorganizmlarni aseptik kulturalashda ishlatish mumkin. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy talablarni bajarish kerak:

- fermentatsion uskunalarning barcha elementlar va bulimlarini sterilizatsiyasi va germetikligini ta'minlash;

- kulturalash jarayonining boshlanishidan oxirigacha aseptik xolatini saklash;

- fermentyorga steril xoldagi kattik, sochiluvchan suyuq va gaz okimini kiritish.

Kattik sochiluvchan muxitni sterilizatsiyalash uchun issiklik bilan birga «sovuk» sterillash metodi va davriy yoki uzluksiz rejimdan foydalaniladi.

Mikrobiologik zavodlar va biokimyoviy kombinatlarda ishlatiladigan laboratoriya fermentatsion uskunalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kulturalash jarayonida mikroorganizmlar effektiv shtammlari ustidan mikrobiologik seleksiya ishlari olib borish.

2. Mikroorganizm o'sish parametrlariga mineral tuzlar, suv va boshqa faktorlar ta'siri, xom ashyo sifatiga ta'sirining ajratish analizi.

3. Xujayra metabolizmga ta'siri va fizik-kimyoviy, biologik tabiatga xos turli stimulyator qo'shimchalarning fermentatsiya jarayonidagi texnologik ko'rsatkichlarini o'rganish.

4. Kulturalash jarayonining optimal parametrlarini aniqlash (xarorat, rN muxit, aeratsiya darajasi, aralashtirish va b).

5. Mikroorganizmlar turli shtammlarining kinetik va stexnometrik bog'liqligini o'rganish.

6. Biomassa tarkibi va xujayra metabolizmining ikkilamchi maxsulotiga tashki omillarning ta'sirini o'rganish.

Laboratoriya fermentatsion uskunalari quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- fermentatsiya uskunasi konstruksiyasiga qo'yilgan talablar;
- texnologik sxemaga qo'yilgan talablar;
- sxemaning o'lchovchi (datchiklar) va nazorat kiluvchi (yoki boshqaruvchi)

qismlariga qo'yilgan talablar.

Konstruktiv fermentatsion laboratoriya uskunalariga komplekt uskuna yoki bloklar kiradi, u quyidagi sxemada o'z aksini topgan.

Bloklar Texnologik jarayonlarni nazorat qilish, boshqarish ulchash,	Strelizatsiya bloki		
	Aeratsiyalanuvchi gaz	Substrat	Ozuqa muxiti
	Fermentyorga beri shva nazorat kilish bloki		
	Titrlanayotgan agent	Substrat	Mineral muxit komponentlari
	Reaktor fermentyor		
	Aralashtirish bloki	Aeratsiyalash va kislorod massa uzatish bloki	Issiqlik massaalmashinish bloki
	Tanlab olish va texnologik ishlov berish bloki		
	Aralashtirish bloki	Mikroorganizmlar suspenziyasi	Otrabotanny gaz (tozalash)

Asosiy uskuna bioreaktor fermentyor hisoblanadi. Laboratoriya uskunolari sifatida 2 dan 100 l hajmgacha bo'lgan apparatlar ishlatiladi.

Kameral va tajriba uskunolari sifatida 0,5-2,0 m³ xajmgacha bo'lgan fermentyorlar ishlatiladi. SHu bilan birga kislorod massauzatish talablarini bajaruvchi, aralashmay qoladigan zonalardan xali, mikroorganizm xujayralariga «yumshoq» gidrodinamik ta'sir ko'rsatuvchi turli tipdagi fermentyorlardan foydalaniladi.

Quyidagi rasmda chuqur suyuq fazali kulturalashning aerob jarayonlarini o'tkazish uchun ishlatiladigan fermentlarning asosiy turlari keltirilgan.

126-bet Fermentyor turi	Aeratsiya va aralashtirish xarakteristikasi	Absorbsiya tezligi O ₂ kg/m ³ soat
	Muhit va dispers gazning intensivligi yukori aralashishning xujayraning mexanik lat eyish	5-20 (aralashtirgichning

	extimoli (mogor uchun) muxitga kislorodning aralashish darajasining ta'siri	aylanishlar sonini o'zgartirilishi varirovat hisobi)
	Xujayra yumshoq mexanik ta'sir, aralashtirgich qismlarning mavjud emasligi.	2-8 Havoni sarflash bilan massaalmashinish va sirkulyasiya qisqari-lishining o'zgarishi
	Turgun zonalarning mavjud emasligi va mexanik kislarning yo'qligi; muxitni intensiv gidravlik aralashtirish	3-12 Sirkulyasion nasos unumdorligi va havo ejektori tavsifining o'zgarishi
	Mexanik qismlarning yo'qligi O ₂ massauzatish intensivligining yuqori darajadali. Gaz oqimi sterilizatsiyasining qulayligi. Fermentatsiya jarayonining ko'ppogonali organizatsii.	5-15 Gazli faza sarfining tezligini tanlash xasiobiga o'zgarishi

Xarakteristikasi	Uskuna							
	ANKUM-2	Biostend	FS-5	FU-6 (30)	Abiteks	XEMAP (SHetsariya)	Biotek (IIIvetsiya)	Nyu Bransvik (AKSH)
Fermentyorning ishchi xajmi, l	1-1,5 (6gacha)	0,5-1	0,2-3	2,5-5 (20)	10	25	3-10	0,5-11
Aralashtirish	mexanik	pnevmatik	M	M	M	M	M	M
Aralashtirgichning aylanish tezligi min ⁻¹	200-1500	-	200-1500	2000 gacha	1500 gacha	3000 gacha	100-900	100-800
Meshalka tipii	Trubina, magnitli mufta	-						

Aeratsiyalash turi								
Fermentyor orkali xavo sarfini nazorat kilish	Barbatyor	Rotametr yordamida kurilgan 10 l/min	Kimyoviy yoki avtoklavda mavjud	Nasos-dozatorlar turi	Membranali, germetik	Ko'piksizlantirish	Issiqlik almashinish uskunasi	
		rotametr	yuk		Membranali, germetik	Yuk	Zmeevikli kurilgan	
		Rotametr 50 l/min gacha	Mavjud avtoklavda			Mexanik kimyoviy	Kobik	
		Rotametr 10 l/min	Mavjud issik	Avtomatik boshkarish		Mexanik aylanuvchi disk	Kobik	
		100 l/min gacha kurilgan	Mavjud issik kimyoviy			Mexanik	Zmeevikli kurilgan	
		Rotametr	Mavjud kuruk bug yordamida	Membranali germetik		Kimyoviy mexanik	Kobik va Zmeevikli kurilgan	
		CHora kurilgan	Mavjud bug bilan	SHlankali germetik		Kimyoviy	Issiqlik almashtirgich kurilgan	
		Kurilgan	Mavjud avtoklavda	SHlankali germetik		Kimyoviy		

Nazorat savollari:

1. Fermentatsion jarayon haqida tushuncha bering
2. Fermentyornlarni qo'llash sohalari
3. Xujayra metabolizmiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
4. Fermentatsiya uskunasini konstruksiyasiga qo'yilgan talablarni tushuntiring

Mavzu-19: Immunobiotexnologiyada qo'llaniladigan bioreaktorni ishlash tartiblari bilan tanishish

Reja:

1. Bioreaktorlarni ishlash tartiblari
2. **Bioretorda** aerob va anaerob o'aroitda baradigan jarayonlar
3. Davriy, uzluksiz jarayonlar sistemasi
4. Gaz fazali energiya berish fermentyornlari

Bioreaktorlarni ishlash tartiblari xaqida so'z borganda, ularda kechadigan fermentatsiyalashning komplekt sistemasining ko'rib chiqamiz. Bunda fermentyor asosiy, biroq yakka bo'lmagan element xisoblanadi. Fermentyornlarni klassifikatsiyalash ularda bo'layotgan jarayonlarga qarab quyidagi guruxlarga bo'linadi:

- 1) aerob, anaerob;
 - 2) davriy, uzluksiz;
 - 3) aseptik, nnosteril;
 - 4) xujayradagi selevoy maxsulot (xujayra tashqarisida);
 - 5) yuqori qism va gurux qismdagi o'sish;
 - 6) eruvchan va noeruvchan chuqurlikdagi o'sish;
 - 7) fermentyordagi ideal siqilish va ideal aralashishga yaqin bo'lgan gidrodinamik talablar.
- 148-bet ris. 3,9

Amaliyotda ko'pincha konstruktiv jixatdan farqlanuvchi bioreaktorlar – apparatga berilayotgan energiya usuli bilan aniqlanadi:

- 1- gaz faza bilan;
- 2- suyuq faza bilan;
- 3- gaz va suyuqlik fazalari (kombinirlangan) bilan.

YUqoridagilarning xar bir guruxi uchun asosiy konstruktiv element va ish rejimi injenerlik xisobi metodikasini ishlab chiqish mumkin.

3,10 rasm (a)

149-bet

3,10 rasm (b)

(3.10) Klassifikatsiyalash sxemasi.

a) Energiya berish usulidagi fermentyornlar.

b) Energiya berish usulini xisobga olish bioreaktorlari.

Gaz fazali energiya berish fermentyornlari.

Bu apparatlarning umumiy xususiyati gaz fazali energiya berishdir. Bu gurux fermentyornlar konstruksiyasi jixatdan oddiy va ekspluatatsiya qilish darajasi yuqoridir. Xarakatlanuvchi uzel v detallardan xoli. Bu gurux fermentyornlarga barbotajli, erliftli, barbotaj-erliftli fermentyornlar misol bo'ladi. bundan tashqari kolonnali fermentyornlar xam yuqori o'rinda turadi.

Suyuq fazali energiya berish fermentyornlari. Bu gurux apparatlariga odatda energiya suyuq fazaga o'zi yutuvchi aralashtirgich yoki nasoslar yordamida beriladi. Bundan

tashqari suyuqlik apparatga maxsus uskunalar (soplo, ejektor, dispergator va b) yordamida kiritiladi.

Bu guruxga o'zi yutuvchi meshalkali fermentyorlar kiradi va ular keng tarkalgan fermentyorlar xisoblanadi. Bu apparatlarga xavo xavo-purkovchi maxsus mashinadan berishi shart emas. Bu uning yutug'i xisoblanadi.

Ejeksion fermentyorlar - Bu fermentyorlarda gazli faza retsikli mavjudki, u

Kamchiligi: gaz saqlovchi kultural suyuqlikni maxsus nasoslar yordamida xaydash lozim

Oqimli fermentyorlar- Unda tashki sirkulyasion kontur, nasos, ejeksion uskunalar, truprovod sirkulyasion sistemalari mavjud.

Suyuq va gazli fazalarga energiya berish fermentyorlari

Bunday turdagi apparatlarning asosiy konstruktiv elementi aralashtirish uskunasi xisoblanadi. U kislorodning aralashish yuqori intensivligini, gazni yuqori darajada dispergirlanishini, muxitni gomogenizatsiyalashni ta'minlaydi.

Aralashtirgichli va barbotajli fermentyorlar- Bunday fermentyorlarda aralashtirguvchi uskuna val bo'lib, unga bir yoki bir nechta aralashtirgichlar o'rnatilgan bo'ladi. Aralashtirgichlar tagida gaztaksimlagich mavjud. Apparat ichiga sirkulyasion stakanlar va issiqlik almashtirgichlar o'rnatilgan bo'ladi.

Kombinirlangan fermentyorlar-Ular sirkulyasion konturli va aeratsiyali bo'ladi. Bu apparatlarda energiya suyuq fazaga osevoy aralashtirgichlar yoki nasos yordamida, xavo esa xavopurkagich yordamida beriladi.

Nazorat savollari:

1.Bioreaktorlarni ishlash tartiblarini tushuntiring

2Bioreaktorda aerob va anaerob sharoitda baradigan jarayonlar bosqichlari

3.Davriy, uzluksiz jarayonlar sistemasini tushuntiring

4.Gaz fazali energiya berish fermentyorlari

Mavzu-20: Immunobiotexnologiyada qo'llaniladigan bioreaktorlarni ishlash prinsiplari

Reja:

1.Bioreaktorlar o'lchamlarini tanlash

2.Dastlabki xom ashyoga qo'yiladigan talablar

3.Mahsulot olish bosqichlari

4.Olingan mahsulotni sifatini tahlili

Bioreaktorni texnologik jarayonlarda qo'llash uchun avvvlo ularni o'lchamlari tanlanadi. Bioraktor o'lchami kubik metrda, xom-ashyo sifati, turi miqdoriga, shuningdek, reaksion muxit davomiyligi va haroratiga bog'liq holda aniqlanadi. Bioreaktor o'lchami va kunlik yuklanadigan xom-ashyo me'yoringing nisbati. Kunlik yuklanadigan xom-ashyoning miqdori bijg'itish davomiyligi va tanlangan haroratga nisbatan aniqlanadi. Bioreaktorda mezofil rejimda bijg'itish davomiyligi 10 kundan 20 kungacha davom etadi. Kundalik quyiladigan xom-ashyoning me'yori esa bioreaktordagi umumiy xom-ashyoning 1/20 dan 1/10 gacha nisbatda bo'ladi.

Aniq miqdordagi xom-ashyoni qayta ishlash uchun bioreaktor o'lchami.-Dastlab hayvonlar soniga bog'liq holda biogaz uskunasi tushadigan kundalik go'ng miqdori (DN) aniqlanadi. So'ngra xom-ashyo suv yordamida 86-92% namlikkacha suyultiriladi.

Ko'pchilik qishloq xo'jalik biogaz uskunalarida go'ng va suv miqdori 1:3 dan 2:1 nisbatgacha qo'llaniladi.

SHunday qilib, yuklanadigan xom-ashyo (D) – bu xo'jalik qoldiqlari summasi (DN) va suv (DV) aralashmasiga teng.

Xom-ashyoni mezofil rejimda qayta ishlash uchun xom-ashyoning kundalik me'yori uskunaga quyiladigan umumiy xom-ashyoning (OS) 10% iga teng bo'ladi.

SHunday qilib, bioreaktor o'lchami (OR) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$OS = 2/3 OR$$

$$OR = 1,5 OS$$

$$\text{Bunda: } OS = 10 \times D$$

$$D = DN + DV$$

Xo'jalikda 10 bosh yirik qoramol, 20 bosh cho'chqa va 35 bosh tovuq boqilganda bioreaktor o'lchami quyidagicha bo'ladi:

1 bosh yirik qoramolning kundalik ekskrementining hajmi 55 kg;

1 bosh cho'chqaniki 4,5 kg, 1 bosh tovuqniki 0,17 kg ga teng bo'ladi.

Demak, xo'jalikning kundalik axlat chiqindisi (DN) quyidagiga teng bo'ladi:

$$10 \times 55 + 20 \times 4,5 + 35 \times 0,17 = 550 + 90 + 5,95 = 645,95 \text{ kilogramm yoki taxminan } 646 \text{ kg ni tashkil etadi.}$$

Ekskrementlarning namligi cho'chqanida va qoramollarda 86%, tovuqlarnikida esa 75% ga teng bo'ladi.

85% li namlikni ta'minlash uchun 3,9 l suv qo'shish zarur (4 kg atrofida).

Demak kundalik quyiladigan xom-ashyo miqdori 650 kg.

Bioreaktorning to'liq xom-ashyo bilan to'ldirilishi $OS = 10 \times 0,65 = 6,5 \text{ t}$ va bioreaktor hajmi $OR = 1,5 \times 6,5 = 9,75$ yoki taxminan 10 m^3 ga teng bo'ladi.

Kinetik xisobning asosini kulturalash jarayonining kinetik bog'liqlik (mutelik, model) va stexiometrik koeffitsient o'zaro bog'liqligi tashkil kiladi. Maxsus adabiyotlarda biz turli xildagi limitlanayotgan substratdan (S) mikroorganizmlar o'sishining solishtirma tezligi (μ) yoki metabolizm maxsulotlarining ingibrlanish (R) bog'liqliklarini ko'rishimiz mumkin.

Kinetik koeffitsient modeli K_S ; K_P ; K_{Pr} va bogliklik adekvatligini tanlash uchun kinetik tajribalarning ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Fermentatsiya jarayonini optimalizatsiya va intensivatsiya usullarining bir necha turlari mavjud. Ular mikrobiologik va texnologik usullarga asoslangan: – aktivrok shtamm – produtsentlarning kullanilishi; - apparaturaviy takomillashtirish;

- ozika muxiti tarkibining optimizatsiyasi va kulturalash talablari;

- biostemulyatorlarni qo'llash;

- substrat, emulgatorlarni «tashuvchilar» va b.

Bu barcha usullar biotexnologik jarayonning maksimal maxsuldorligini va oxirgi maxsulot chiqishini ko'paytiradi. Substratni ratsional ishlatilishi natijasida tan narx tushadi va maxsulot birligiga sarflanayotgan energiya kamayadi. Xom ashyoning komponent tarkibi va uning «tozaligi» biosintez maxsulotlari chiqishi va sifatiga bog'liq. Mikrobl sintez maxsulotlari ishlab chiqarish mashtablarida toza substratlar qatorida, masalan, individual

qoidalar, uglevod saqlovchi oziqa chiqindilari ishlatiladi. Producersentlarni kulturalashning optimal talablarini tanlashdi jarayonning fiziologik fazaliligiga katta e'tibor berish lozim. Bizga ma'lumki, davriy kulturalash jarayoni fiziologik jixatdan ikki fazali xisoblanadi, ya'ni bunda biomassa to'lishi maksimum tezligi vaqt bo'yicha maxsulot to'lish maksimum tezligiga mos kelmaydi. Agarda xar ikki tezlik mos kelsa, u xolda jarayon bir fazali xisoblanadi.

Xujayralarga kislorod transporti ta'sirini xisobga olib kulturalash jarayonini optimizatsiya qilish etarli darajada aktual va samarali usul xisoblanadi.

Texnologik jarayondan quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- fermentatsiya jarayonini izbytochnyy bosimda amalga oshirish;
- kislorodni aeratsiyalash yoki kislorod-xavoli aralashmadan foydalanish;
- muxitning fizik-kimyoviy xususiyatiga ta'sir etuvchi yoki kislorodning massa tashishni tezlashtiruvchi sirt-aktiv moddalardan foydalanish;
- kislorod tashuvchilardan foydalanish;
- xujayralarni aktivizatsiyalash maqsadida lazer, ultratovush, magnitli usullardan foydalanish;
- xaroart, rN, aeratsiya populyasiyasi buyicha siklik (stress) ta'sirlarning qo'llanilishi;
- mikroorgnizmlarning kislorod yutish tezligi bo'yicha substrat, tuzlarning optimal uzatish usulidan foydalanish.

Fermentatsiya jarayonini optimizatsiyalashning bu usullari aniq biosintez jarayoniga nazariy va eksperimental jixatdan yondoshishni talab etadi.¹⁴

Nazorat savollari:

1. Bioreaktorlar o'lchamlarini tanlash uchun qanday parametrlar muhim hisoblanadi?
2. Dastlabki xom ashyoga qanday talablar qo'yiladi?
3. Mahsulot olishda bioreaktorda qanday jarayonlar kechadi?

¹⁴ Комилов Х.М., Рахимов М.М., Д.Ю. Одилбекова. Биотехнология асослари. Тошкент. EXTREMUM PRESS, 2010.477 б.

Amaliy mashg'ulot №1 : GELDAGI QO'SHALOQ DIFFUZIYA.

Ishdan maqsad: diffuziya usullari bilan tanishish, usulning qonun qoidalari va qo'llanilishi xaqida tushunchalarga ega bo'lish.

Ishni bajarish uchun namuna

Antigen va antitela eritmalari qarama-qarshi tomonda joylashgan, chuqurligi qarayib 1,5 mm keladigan chuqurchalarga quyiladi. CHuqurchalarning joylashuvi va ular orasidagi masofa shisha ostiga quyilgan trafaretga qarab aniqlanadi. Bu tajribalarni standartlashtirishga imkon beradi. Antigenlar va antitelalar gelga diffuziylanadi, bir-biri bilan uchrashib, qarama-qarshi joylashgan chuqurchalar orasida pretsipitatsiya chiziqlarini hosil qiladi. Pretsipitatsiyaga zarur bo'lgan vaqt asosan antigen va antitelalari bor chuqurchalar orasidagi masofa bilan o'lchanadi. Umuman chuqurchalar orasidagi masofa 6 mm dan oshmasligi kerak. Agar hamma chuqurchalar bir hil kattalikda bo'lsa, ular orasidagi masofa chuqurchaning ikki diametridan oshmasligi lozim.

Diffuziya sekin o'tadigan katta molekulyar ($\text{mol.og'irligi} > 1000000$, massalan, Ig m) tekshirilganda pretsipitatlarning hosil bo'lishiga 24 soatdan ko'ra ko'p. vaqt ketadi. Harorat oshganda reaksiya tezroq o'tsada, lekin ba'zan bunda pretsipitatsiya yomonlashadi. CHuqurchalar o'lchamlarini shunday tanlash mumkinki, bunda reaksiyaga kirishadigan moddalarning nisbati optimal (eng to'g'ri), pretsipitatsiya chiziqlari esa ravshan bo'lishi kerak. Agar nisbiy Konsentratsiyalar durust tanlanmasa, immun komplekslar eruvchanligigacha qolaveradi va pretsipitatsiya chiziqlari umuman ko'rinmaydi, yoki xira va bilinmaydigan bo'lib qoladi. Antigen va antitelalarning bir necha xil konsentratsiyalari (suyultirilganlari) olinganda eng yaxshi natijalarga erishiladi.

Zardobga qarshi moddalar surtilmagan xollarda antigenlar konsentratsiyasi odatda qariyb 1 mg/ml ni tashkil qilmog'i zarur. Tegishli suvultirilgan pretsipitatsiya xossalari yaxshi bo'lgan antitelalarni ishlatib turib 5mg/ml konsentratsiyali individual antigenlarni aniqlasa bo'ladi. I – rasmda foydasi tegishi mumkin bo'lgan chuqurchalarning joylashish misollari keltirilgan. CHuqurchalar o'lchamlari masshtabga (katta-kichiklikka) qarab berilgan. Bir-biriga nisbatan muayyan holda joylashgan chuqurchalarni qirqib olish uchun mo'ljallangan kommersiya perforatorlari ma'lum.

2. Usulning qo'llanilishi.

1. Pretsipitatsiyalovchi xossalarga bo'lgan muhim birlamchi test (sinov), taxminiy titr va eruvchan antigenlarga nisbatan antitelalarning spetsifikligi.
2. Antitelalar spetsifikligini aniqlashning standart (qabul qilingan) usuli.
3. Antigenlarning bir xil bo'lishini aniqlash testi, antigen tozaligini va antigenlarning molekulalar orasidagi o'zaro ta'sirini aniqlash.
4. Antigen konsentratsiyasini taxminan aniqlash.

3. Gellarni tayyorlash.

1. Agaroz saqlanadigan flakon qopqog'ini ochib, flakonni agaroz tamomila eriguncha qaynab turgan suvga qo'yib qo'yiladi.
2. Gelbond ning kichik qoshiqchasi ishlatilganda plenka xo'llanadi va uni xo'llanmaydigan tomonini shisha plastinkaga tekkizib qo'yiladi. Bu plastina ish stoliga o'rnatiladi va plastinaning gorizantal holatda joylashganligiga ishonch hosil qilinadi.
3. Plastinaga 9,6 ml miqdordagi erigan agaroz surtib qo'yiladi, agaroz bunda plastina bo'ylab markazdan chetlariga yoyiladi (zarur bo'lganda agarozaning tomizg'ichning uchi

orqali yoyilishiga yordam beriladi va gelda pufakchalarning qolmasligiga ishonch hosil qilinadi).¹⁵

Tayanch soʻzlar va iboralar:

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, gʻujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?


Amaliy mashgʻulot №2 ANTITELALARNING SPETSIFIKLIGI.

Maqsad: antitelalar spetsifikligini oʻrganish.

Ishni bajarish uchun namuna

Geldagi qoʻshaloq diffuziya – bu molekullarning orasidagi antigen bogʻlanishlari va ning antiqa va oddiy usulidir. Bu usulning ikkita kamchiligi bor: kam sezuvchanlik va chiziqlarni aniqlashda chiziqlar bir birini ustiga tushib qolishi mumkin.

Misol tariqasida oddiy tajriba natijalari koʻrsatilgan, bunda tekshiriladigan (anti-Y) antitela (chuqurcha) 5 tekshirilayotgan ikkita antitelalar (chuqurchalar 3 va 4) bilan solishtiriladi (4-rasm).



4-rasm.

Markaziy chuqurchada antigenlar aralashmasi boʻlib, u juda boʻlmaganda ikkita komponentdan iborat, bularning biri tekshiriluvchi antiteloning nishoni (Y) dan tshkil topgan. Chuqurcha 6 ga standart xolda tozalangan antigen boʻlgan chuqurchalar orasidagi pretsipitatsiya chiziqlari standart antigen Y va aralashmada saqlagan antigenning oʻxshash ekanligidan dalolat beradi. Tekshirilayotgan zardobga qarshi modda 1 (chuqurcha 4) da

¹⁵ Ташмухамедова Ш.С «Иммунобиологик фаол моддалар технологияси» Ўқув услубий қўлланма.- Ташкент, 2016.- 83с.

xam antigen Yga nisbatan antitelalar bo'lib, to'la o'xshashlik reaksiyasini berib qo'shimcha pretsipitatsiya chiziqlari bo'lmaydi. Lekin tekshirilayotgan antitela 2 (chuqurcha 3) aralashmada saqlagan ikkinchi antigenga nisbatan spetsifik bo'lgan antitelalar saqlanadi. Antigen X ikkinchi tekshiruv antitela bilan aniqlanadi, bu modda chuqurcha 1 ga joylashtirilgan tozalangan antigen X va U xosil qilgan pretsipitatlar chuqurcha 3 qarshisida birlashadi, lekin chuqurcha 2 va 3, shuningdek, chuqurcha 3 va 4 orasida pretsipitatsiya yo'ylarining qo'shilmasligi ko'rinib turganidek, pretsipitat ikkita mustaqil sistemalarga mansub bo'ladi. Standart antigenlarsiz va tekshiruv antitelalarsiz xam shuni faraz qilish mumkinki, bu antigenlar qisman o'xshashlikka ega emas, chunki pretsipitatsiya chiziqlari pixlarni xosil qilmaydi.¹⁶

Tayanch so'zlar va iboralar:

Antigenlar – taxassus immun javobini chaqirishga qodir bo'lgan organizm uchun yot oqsillar.

Antitelalar – organizmga yot oqsil kirganda xosil bo'ladigan va shu yot oqsilning zararli ta'sirini yo'qotadigan oqsil moddalaridir.

Nazorat uchun savollar:

1. Pretsipitatsiya nima?
2. Antigen va antitanalarni ishlab chiqarishining dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

Amaliy mashg'ulot №3

ANIQ HAL ETISH QOBILIYATI VA SEZUVCHANLIK

Ishni maqsad: diffuziya usullari bilan tanishish, usulning qo'llanilishi xaqida tushunchalarga ega bo'lish.

Ishni bajarish uchun namuna

Ichki standartlar ishlatilsa, radial diffuziyaning natijalar aniqligi yoki qayta ishlab chiqarilishi juda oshadi. U xolda tasodifiy xatolar plastinalar doirasidagi noaniqliklarda iborat bo'lib, bular ning asosiy sabablari – aralashma va namunalar kiritilishining noaniqligidir. Tajriba organ sari shunday natijalarga erishish mumkinki, bunda xato ko'p deganda 5 foizni tashkil etadi. Xatoni pretsipitatsiya xalqalari diametrlarining parallel joylashgan chuqurchalar atrofida tarqalganligini o'lchab aniqlasa bo'ladi. Bundan tashqari, xatolar muntazam olinmaganligida kalibrli egri chiziqqa xam namoyon bo'ladi.¹⁷

Tayanch so'zlar va iboralar:

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, g'ujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

¹⁶ B.Glik, Dj.Pasternak «Molekulyarnaya biotexnologiya: Prinsipi i primeneniye» Per.s angl.-M.: Mir, 2002g.-589str.

¹⁷ 6Abraham J. M., Freitag C. S., Clements J. R., Eisenstein B. I. An invertible element of DNA controls phase variation of type 1 fimbriae of *Escherichia coli*. Proceedings of the National Academy of Sciences. 1985;82:5724–5727. [PMC free article] [PubMed]

AMALIY MASHG'ULOT №4

IMMUN ELEKTROFOREZ USULLARI.

Ishni maqsadi: elnktroforetik migratsiyasi, lateral diffuziya, manfiy zaryadlangan molekulalar antitelalar saqflovchi gel,

Ishni bajarish uchun namuna

Ushbu usullarda agarozada keyinchalik gelda immunpretsipitatsiya bo'ladigan anttigenlarning elnktroforetik migratsiyasi (ko'chishi) sodir bo'ladi. Birinchidan, jarayon natijasida antigenlar aralashmasining qisman bo'linishi sodir bo'ladi, chunki ularning geldagi kuo'chishi mazkur rN i dagi bufer aralashmasining umumiy zaryadiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, manfiy zaryadlangan molekulalar antitelalar saqflovchi gelga tez ko'chadi, bu pretsipitatsiyani tezlashtirib, lateral diffuziyani deyarli bartaraf etadi.

1.Immunelektroforez (IEF)

Agarozali gel plastinasida chuqurchalar va ular orasida joylashgan egatchalar qirqib olinadi. Chuqurchalarga antigenlar eritmalari qo'yiladi va agarozaga qarma-qarshi tomondan pilikchalar qo'yiladi, pilikchalar agarozani ikki rezervuarda elektrodli bufer bufer bilan birlashtiradi. Tok ulangandan keyin antigenlar chuqurchalardan gel bo'ylab ko'cha boshlaydi va ajralib ketdi. Elektroforez tugashi bilan antigenlarning o'xshashligini aniqlasa bo'ladi. Interpretatsiya natijalari geldagi diffuziya usullaridagi kabitdir.

2. Qo'llanilishi.

Immunelektroforez birinchi navbatda antigenlarning sifatini va antitelalar pssetsifikligini aniqlash usulidan iborat.

1. Antigenlar. Usul quyidagi hollarda qo'llaniladi: 1) aralashmaning antigen tarkibini aniqlash uchun – bu, xususan, antigenlarni tozalashda muximdir. 2) alohida (individual) antigenlarning geterogenligini va gomogenligini taxlil qilish uchun

2. Antitelalar. Antitelalar spetsifikligini aniqlashda ishlatiladigan odatdagi test. Zardobli oqsillarning ja'mi pulasiga qarshi bo'lgan moddalar tekshiruv sifatida ta'sirchan hisoblanadi.

3. Usulni qayta ishlash.

1. Geldagi diffuziya testi singari agarozali plastinalar tayyorlnadi.

2. Plastina trafetga joylashtiriladi, plastinaning ikkala tomonidan metall chizg'ich uchun ikkita taglik joylanib, chizg'ich bo'yicha uchi o'tkir bo'lgan skalpel (keskich) agatchalar chegaralari qirgiladi.

3. Elektroforez uchun kamera rezervuaarlariga bufer qo'yilib, sovituvchi plastina zmeevigiga suv quyiladi.

4. Antigenlar chuqurchalarga quyiladi, bir chuqurchaning oldidagi gel satxiga ega bromfenol ko'ki kristalli joylashtiriladi.

5. Kamera qopqoq bilan yopiladi (zmonaviy kameralarda kontakt ayirgichlari xavfsiz bo'lishi uchun qopqoqda bo'ladi). Qutblikka rioya qilib (anod plastinaning o'ng chekkasiga ulanadi) kameraga simlar ulanadi.

6. Bormfenol ko'kning anodga qarab ko'chishiga ishonch hosil qilinadi. rN 8,6 ga teng bo'lganda uning ko'chish tezligi soatiga qariyb 4 sm ni tashkil etishi lozim. Qopqoqni ochishdan va plastinani ko'zdan kechirishdan oldin albatta tok manbai o'chiriladi. Bo'yoqchi agatcha qirg'og'iga surilganda elektroforez tugatiladi.

7. Gelnı darxol chuqur bo'lmagan nam kameraga ko'chirilib, tekis stolga joylanadi. Egatchalarnga qariyb 150 ml tegishli ziddizardoblar quyiladi va kamera qopqoq bilan berkitiladi. Zardob gelga tushmagunicha kamerani siljitmang (masalan, kamerani sovutkichga qo'ymang).

8. Pretsipitatsiya reaksiyasi o'tishi uchun gellar tuni bo'yi 4⁰ S da qoldiriladi. Agar reaksiya xona xaroratida o'tkazilsa, gel bir necha soatdan keyin tekshiriladi va zarur bo'lsa reaksiya to'xtatiladi, pretsipitatsiya yoylari hali ravshanligicha saqlangan daqiqagacha gel

suv bilan yuvib tozalanadi. Nam plastinalarni egatchalarni suv bilan to'ldirib yoyilgan yorug'likda suratga olgan maqul. Plastinaning pastki shishali yuzasini glitserin bilan yog'sizlantirish mumkin. Plastinalar yuvib tozalanadi, quritiladi va geldagi immun diffuziyani amalga oshirgandagi kabi bo'yaladi. Geldan zardobli oqsillarni olib tashlash uchun uni yaxshilab tozalab yuvish kerak. Antitelalar sifatida zardobning Ig G fraksiyasi ishlatilganda oqsillarning fon bo'yalishi kamayadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

«ASSESSMENT» texnikasi

Mazkur metod talim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, ozlashtirish korsatkichi va amaliy konikmalarini tekshirishga yonaltirilgan. Mazkur texnika orqali talim oluvchilarning bilish faoliyati turli yonalishlar (test, amaliy konikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

3-jadval. «ASSESSMENT» usulining nazorat shakli.

Test	Qiyosiy tahlil
Simptom	Amaliy konikma

AMALIY MASHG'ULOT №5 RAKETALI IMUNNO ELEKTROFOREZ.

Ishni maqsadi: Raketali immunoforez usuli bilan monospetsifik antitela bilan bo'lgan reaksiyada individual antigen konsentratsiyasini baxolash.

Ishni bajarish uchun namuna

Raketali immunoforez va immun pretsipitatsiya kombinatsiyasi qoidasini yanada rivojlanishi natijasida ishlab chiqilgan. U monospetsifik antitela bilan bo'lgan reaksiyada individual antigen konsentratsiyasini tez baxolash imkonini beradi.

Individual antigenlar gel asosida joylashgan chuqurchalardan tarkibida spetsifik antitelalar saqlagan agarozaga ko'chadi. Maxsus sharoitlar yordamida antigenning anodga qarab ko'chishi va antitelalarning bog'langani sari pretsipitatsiyaning o'tkazilgan yoylari (raketalari) xosil bo'ladi. Raketalarning balandligi antigen konsentratsiyasiga proporsionaldir. Agar plastinaga standart antigenning bir qancha aralashmalari surtilgan bo'lsa, no'malum (tajribalari) namunalarining konsentratsiyasini aniqlash oson, bunda ular standart egi chiziqlari bilan solishtirib ko'riladi. Aralashmalaridagi individual antigenlarni aniqlash uchun geldagi monospetsifik antigenlarni aniqlash uchun gelda monospetsifik antitelalar bo'lishi zarur.¹⁸

¹⁸ Agarwal P., Oldenburg M. C., Czarneski J. E., Morse R. M., Hameed M. R., Cohen S., Fernandes H. Comparison study for identifying promoter allelic polymorphism in

Tayanch soʻzlar va iboralar:

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, gʻujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

AMALIY MASHGʻULOT №6 KESISHMA IMUNNO ELEKTROFOREZ.

Ishni maqsadi: usulning qoidasi va qoʻllanilishi usullari

Ishni bajarish uchun namuna

Mazkur usulda birinchi bosqichda bir yoʻnalishda antigenlarning elektroforetik ajratilish va boshqa yoʻnalishda (90 burchak ostida), ikkinchi bosqichda raketali IEF koidasi koʻzda tutiladi. Ajratilgan antiegnlar polispetifik antitelalari boʻlgan agarozaga koʻchib raketalaridan bir manzarani xosil qiladi. Usul antgenlar tarkibini teshirishi uchun katta analitik ahamiyatga, bundan tashkari miqdoriy xisoblashlarning baʼzi bir xossalari ega boʻladi. U anodga koʻchadigan antigenlar tozaligini shuningdek antitelalar spetsifikligini testlash uchun juda foydalidir. Yu antitelalar saqllovchi, lekin pretsipitatlar xostil qilmaydigan gelga kiruvchi xar kanday oqsillarni geldan xalos etish mumkin, bunda elektroforez pritsipitatlar geldan anod tarafidan chiqib ketmaguncha davom ettiriladi. SHunday qilib. Ushbu usul antigen va antitelo kompleksini tozalash uchun ishlatish va uchliklardan immunlash uchun foydalanish mumkin. Bu boshqa usullarda tozalash qiyin boʻlgan koʻp sonli antigenlarga yoʻl ochib beraladi. Plastinalardagi antigen uchliklarini maʼlum boʻlgan standartlar bilan solishtirib, antigen aralashmalarining miqdorini baxolash mumkin boʻladi. Bu xususan kasallikda zardob tarkibining oʻzgarilishlarini aniqlashgan imkon beradi. Masalan: komplementning uchinchi komponentini faollashtirib (fermentativ parchalinish) individual oqsillarning oʻzgarishlarini va boshqa oqsillar proteolizinni kuzatish mumkin. Usuldan gelga ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kiritilgan spetsifik antitelsoni tekshirish uchun foydalanish mumkin.

Tayanch soʻzlar va iboralar:

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, gʻujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

AMALIY MASHGʻULOT №7 MUQOBIL IMMUNNO ELEKTROFOREZ.

Maqsad: usulning oʻziga xosligini koʻrib chiqish.

Ishni bajarish uchun namuna

rN 8,6 boʻlganda rN qiymati antitelolardagiga qaraganda kattaroq boʻlgan antigenlar yuqori elektr endosmotik xossalarga ega boʻlgan gelda turib, qarama qarshi

chuqurchadan katodga siljiydigan antitelolarga qarab juda tez siljiydigan anodga tomon ko'chadi. Bu xodisadan foydalanish antigenlar va antitelalar bor (ular tegishli proporsiyalarda qo'yilgan taqdirda) chuqurchalar orasida pretsipitatsiya chiziqlarini tezlik bilan olish imkonini beradi. Muqobil IEF- antigenlarini xam antitelolarni xam aniqlashning eng sezuvchan va tezkor usulidir. Bu usul fiziologik suyuqliklarda yuqumli antigenlarni (masalan, gepatit V virusi antigenlarini) zardobli oqsillar konsentratsyaisining o'zgarishlarini (masalan a-fetoproteinni) aniqlash. va shuningdek anodga ko'chadigan bir qator antigenlarga nisbatan antitelollarni testlash uchun keng ko'lamda qo'llaniladi. Usulning sezuvchanligi 400 g/ml ga etadi.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, g'ujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

AMALIY MASHG'ULOT №8 VESTERN-BLOTTING VA ANTIGENLI BO'LAKCHALARNI IMMUN KIMYOVIY BO'YASH.

Ishni maqsadi: usulning qo'llanilish soxalarini o'rganish

Ishni bajarish uchun namuna

Poliakrilamidli gelda elektroforez yordamida ajratib qo'yilgan molekulalarni elektroforetik tarzda nitrotsellyulozani membranaga ko'chirish mumkin, bunda molekulalar ana shu membrana bilan birikib, elektrofonetik bo'linish manzarasini aks ettiradi. Bu jarayon Vestern-blotting yoki elektroblotting deb ataladi. Blottingdan keyingi standart antigen va molekulyar og'irlik markerlarining treklarini oqsilli yoki uglevodli bo'yoqchi bilan bo'yaladi, qolganlarini antitelalar namunalari bilan inkubatsiya qilinadi. Nishonlangan antitelalar yordamida ayrim antigenli bo'lakchalar aniqlanadi. Bu bosqichni immun kimyoviy bo'sh bosqichi deb ataladi. Usul to'la xajmda elektroforezning PAAG da molekulalarni bo'lib tashlash kabi ajoyib xususiyati sifatida ishlatiladi, molekulalar konsentratsiyai kichik bo'lib, bunda antitelalarning spetsifik antigen komponentlarini aniqlash xossalari xam bor.

SHunday qilib, usuldan ko'proq antigenlar tarkibi va molekulyar o'lchamlarini aniqlash uchun foydalaniladi. Bundan tashqari bu usul spetsifik antitelalar (xususan MKA) spetsifikligini aniqlash va bir xil yoki turlicha tuzilgan antigenli preparatlarda (masalan, bakteriyalarning turli xillari, virusli mutantlar, xujayra ekstraktlari va b.) antigeni jixatidan o'xshash molekulalarni qidirishda juda samarali xisoblanadi.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Vestern-blotting yoki elektroblotting - bunda molekulalar ana shu membrana bilan birikib, elektrofonetik bo'linish manzarasini aks ettiradigan jarayon.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

AMALIY MASHG'ULOT №9 IMMUNFERMENT ANALIZDA ISHLATILADIGAN FERMENT-NISHONLARNI AKTIVLIKLARINI ANIQLASH USULLARI.

Ishni maqsadi: Peroksidaza va ishqoriy fosfataza katalitik aktivligini aniqlash va kon'yugat olish usuli.

Ishni bajarish uchun namuna

6 mg o-fenilendiamin 15ml 0,02 m fosfat-sitrat buferida, rN 5 eritiladi va bu eritmaga 10mkl konsentrlangan (30% li) perekis vodorod qo'shiladi. So'ngra ferment eritmasi qo'shiladi va eritmaning optik zichligini o'zgarishini 435 nm (yoki teng hajm 0,1 m H₂SO₄ eritmasi qo'shilgandan so'ng 490 nm)da o'lchanadi.

b) Peroksidaza aktivligini 5- aminosaltsil kislota eritiladi.

Eritma xona haroratigacha sovutiladi. Eritma rN i 6,0 gacha 1 m NaOH bilan etkaziladi va 1 ml N₂O₂. (konsentrlangan 30%-li (9,8m) N₂O₂ eritmasi 100000 marta suyutiriladi).

v) Peroksidaza aktivligini 2,2- azino-di-{3-etil-2,3-di- gidrobenzotiazolin-6-sulfon kislotasining diammoniy tuzi (ABTS) yordamida aniqlash.

g) Peroksidaza aktivligini p-oksifenilpropion kislota yordamida fluorimetrik usulda aniqlash.

0,25 g tozalangandan p-oksifenilpropion kislota 50ml 0,1 m fosfat buferida rN 8,0 (eritma rN 7,0 gacha kamayadi).

d) Xemilyuminessent usulida peroksidaza aktivligini aniqlash.

1. Peroksidazaning antigen yoki antitela bilan kon'yugati tutgan polistirol probirkalarga D-lyusiferining 0,01 m tris-NS1 rN 8,0 buferdagi 3,6 mM eritmasidan 10mkl va 1,25 mM lyuminol va 2,7 mM perekis vodorod eritmalarining aralashmalaridan 1 ml qo'shiladi.

2. Ferment kon'gati tutgan polistirol probirkaga lyuminol (1,8 mg lyuminol 10 ml 0,1 N NaOH da eritiladi) ning 1mM li eritmasidan 20 mkl va NaOH ning 0,21M eritmasidan 960 mkl qo'shiladi.

Glyukozooksidaza

a) Fotometrik usulda glyukozooksidaza fermenti aktivligini o-fenilendiamin yordamida aniqlash.

100 mg D-glyukoza 10ml 0,01 m fosfat bufer, rN 5,5 da eritiladi. Eritmaga 1 soatdan keyin 1 mg xren peroksidazasi va 2,5 ml (1 mg/ml) o-fenilendiamin qo'shiladi.

b) Fluorimetrik usulda glyukozooksidaza aktivligini p-oksifeniluksus kislota yordamida aniqlash.

50 mg o-oksifeniluksus kislota 50 ml 0,05 m atsetat buferida, rN 5,0 eritiladi, eritma rN i 5,0 ga 10 m NaOH eritmasi bilan etkaziladi va 1 mg peroksidaza qo'shiladi. SHu eritmaning 0,25 ml ga 0,01 M fosfat buferida, rN 7,0 0,1 NaCl va 1 g/l qoramol zardobi al'bumini eritmasida eritilgan glyukozooksidazaning 10mkg eritmasi qo'shiladi.

Ishqoriy fosfataza

a) Fotometrik usulda ishqoriy fosfataza fermenti aktivligini 4-nitrofenilfosfat yordamida aniqlash.

1,1 gr 4-nitrofenilfosfatning ikkita natriyli tuzi x 6N₂O 4ml suvda eritiladi va hajmi 5 ml gacha etkaziladi. Spektrofotometr kyuvetasiga 3ml tarkibida 1 mM MgCl₂ va 0,1 mM ZnCl₂ tutgan 0,1 M glitsin-NaOH beferi eritmasi qo'yiladi. Kyuveta 30⁰S 5 minut ishlanadi va 20 mkl ferment eritmasi qo'shiladi. Reaksiyani 30 mkl 4-nitrofenilfosfat eritmasini qo'shish bilan boshlandi va 405 nm to'lqin uzunligida optik zichligini oshishi o'lchanadi.

b) Fluorimetrik usulda ferment aktivligini 4-metilumbelliferilfosfat yordamida aniqlash.

2,6 mg 4-metilumbelliferilfosfatni 33,3 ml 0,1 m glitsin-NaOH buferida, rN 10,3 eritib, substratning 0,3 m eritmasi tayyorlanadi. Devorlariga spetsifik sorbsiyalangan fermentning 0,1 ml tarkidida 1mM MgCl₂ , 0,1 mM ZnCl₂ , 0,5 g/l NaN₃ va 250 g/l albumin tutgan 0,1 M glitsin-NaOH buferi rN 10,3 qo'yiladi.

FERMENT – OQSIL KONYUGATLARINI OLINISHI.

a) Nakane usulida xren peroksidazasini immuneoglobulin G bilan konyugati sintezi.

4 mg xren peroksidazasi (RZ – 3,0) ning 1 ml suvdagi eritmasi 0,2 ml yangi tayyorlangan 0,1 M NaJO₄ eritmasi qo'shiladi va xona haroratida 20 minut mobaynida aralashtiriladi. Olingan eritma tun bo'yi 4⁰S da 0,001 M natriy atsetat buferi, rN 4,4 ga qarshi dializ qilinadi yoki sefadeks G-25 li kolonka (1 x 10sm) da xromatografiya qilinadi.

SHu modifikatsiya qilingan peroksidazaga 20 mkl 0,2 M natriy karbonat buferi rN 9,5 va 8 mg immunoglobulin G ning 2 ml yuqoridagi buferdagi eritmasi qo'shiladi. Reaktsion aralashma 2 soat mobaynida xona haroratida aralashtiriladi, 0,1 ml yangi tayyorlangan NaBH₄(4mg/ml) ning suvli eritmasi qo'shildi va 4⁰S da 2 soat mobaynida aralashtiriladi. Olingan kon'yugat (NH₄)₂SO₄ tuzi bilan cho'ktiriladi va dializ qilinadi yoki sefadeks G-200 tutgan kolonka (1,6 x 35 sm)da xromatografiya qilinadi. Birinchi pik yig'iladi. Kon'yugatni stabillash uchun BSA (1%) , mertiolat (0,025%) yoki glitsirin (50%) qo'shiladi va oz-oz miqdorda 4⁰S da saqlanadi.

b) Glutar dial'degidi yordamida i munoglobulin G ning xren peroksidazadasi (RZ= A₄₀₃/A₂₇₅- 0,3) 0,2 ml tarkibida 0,15 M NaC va 1,25% -li glutar dial'degidi tutgan 0,2 ml 0,1 M fosfat buferida, rN 6,8 eritiladi va xona haroratida tun bo'yi aralashtiriladi. Glutar dial'degidni ortiqchasini 0,15 M NaCl eritmasiga qarshi dializ yo'li bilan yoki sefadeks G-25 tutgan kolonkada (1 x 10 sm) xromotografiya usulida yo'qotiladi. 0,15M NaCl eritmasi bilan 1ml gacha suyultiriladi, 1ml immunoglobulin G ning 0,15 M NaCl dagi eritmasi v 0,1ml 1 m karbonat buferi, rN 9,5 qo'shiladi. Xona haroratida 2 soat mobaynida inkubsiya qilinadi va tarkibida 0,15 M NaCltutgan 0,01 M (NH₄)SO₄ ning to'yingan eritmasini ekvivalent hajmi bilan cho'ktiriladi va 1 ml fosfat buferida eritiladi. Eritma fosfat buferiga qarshi dializ qilinadi. Eritma 10000 g da 30 minut sentrifugirlanadi, cho'kmadan ajratiladi, 1%-gacha al'bumin qo'shiladi va teshikchalarning diametri 0,2 mkm bo'lgan filtr orqali filtirlanadi. Olingan konyugat – 20⁰S yoki teng hajm glitserin qo'shgandan so'ng +4⁰S haroratda saqlanadi.

Tayanch so'zlar va iboralar:

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, g'ujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

AMALIY MASHG'ULOT №10 : POMIDOR VIRUSLARINI IMMUNOFERMENT ANALIZNING "SENDVICH" USULIDA ANIQLASH.

Ishni maqsadi: POMIDOR VIRUSLARINI IMMUNOFERMENT ANALIZINING "NIQOBLANISH" USULIDA ANIQLASH.

Ishni bajarish uchun namuna

Viruslarni IFA ning "Sendvich" usulida aniqlash polistiroлга adsorbsiyalangan qarshi antitelalarning ketma ket virus va antitelalarning peroksidaza bilan konyugati bilan ta'sirlashishini o'z ichiga oladi. Qattiq fazadagi ferment aktivligi virusning boshlang'ich konsentratsiyasiga proporsionaldir va tekshirilayotgan namunadagi virus miqdorini xarakterlaydi.

Kerakli material va asboblari: Pomidor virusi va unga qarshi olingan antitela, spetsifik antitelalarning peroksidaza bilan kon'yugati, peroksidaza aktivligini aniqlashga 5-aminosalitsil kislota asosida substrat aralashmasi, polistrol planshetlari, avtomat-pipetkalar, spektrofotometr.

Usulining tavsifi

1. Antitelalaradsorbsiyasi: antitelalarning adsorbsion immunobilizatsiyasiga antitelalarning fosfatbuferidagi 5 mkg/ml li konsentratsiyadagi eritmasi ishlatiladi. Planshet chuqurchasiga 0,2 ml eritma quyiladi. So'ngra planshetlar qopqog'i bilan berkitiladi va 4⁰S da tun bo'yi qoldiriladi. Eritmasiga planshet chuqurchalaridagi suyuqlik to'kib tashlanadi va

tvín-20 tutgan fosfat buferi (TFB) bilan yuviladi. Planshetlar havoda kiritilgandan soʻng – 20⁰S da bir necha oy mobaynida immunologik aktivligini yoʻqotmaydi.

2. Tekshirilayotgan namunalarni qoʻshish: Hamma tekshirilayotgan namunalar planshet chuqurchalariga 0,2 ml hajmdagi TFB /boshlangʻich virus namunasi 10-50 marta suyultiriladi/ solinadi va 37 S da 1 soatga qoldiriladi. Har bir aniqlanayotgan namuna uchun 2-3 parallel oʻlchash oʻtkaziladi. Kontrol sifatida virus bilan zararlangan sogʻ oʻsimlik ekstraktlari olinadi.

3. Soʻngra antigen eritmasi toʻkib tashlanadi va 4 marta TFB bilan yuviladi. Konyugat TFB da 1 – 2,5 mkg/ml konsentratsiyagacha suyultiriladi va planshet chuqurchalariga 0,2 dan qoʻyiladi. Planshetlar 37⁰ S da 1 soat davomida qoldiriladi va 4 marta TFB bilan yuviladi.

4. keyin planshet chuqurchalariga 0,2 ml substrat aralashmasi qoʻshiladi va xona haroratida 30-40 minutga qoldiriladi. IFA natijalari koʻz bilan yoki spektrofotometrda $\lambda=450$ nm da oʻlchanadi.

POMIDOR VIRUSLARINI IMMUNOFERMENT ANALIZINING “NIQOBLANISH” USULIDA ANIQLASH.

VTM ning pomidor shtammi bilan kasallangan pomidor barglaridan virus ajratiladi. Bu virus polimid granulariga bifunksional agentlar (glutar dialdegidi, gossipol) yordamida 0,1M borat buferida rN 8,5 (5⁰Sda 24 soat) immobilizatsiyalanadi. Sorbentdagi erkin aldegid gruppalarini monoetanolamin bilan blokirovka qilinadi. Olingan sorbent virusga qarshi antitelalarni tozalashda ishlatiladi. VTM ning pomidor shtamiga qarshi antitelalar quyonlarni immunizatsiya qilib olinadi. Antitelalar titri 1%-li agar gelida Uxterloni usulida aniqlanadi. VTM ga qarshi zardob 0,05 M tris-NS⁺ rN 7,0 buferida (tarkibida 30 mM kalsiy xlorid, etilenglikol tutgan) 5⁰S da 2 soat mobaynida doimiy ravishda chayqatib dsorbsiyalanadi va sorbent bufer bilan yuvib tashlanadi. Antitelar desorbsiyasi tarkibida 1 M KS1 tutgan 0,05 M tris-NaOH buferi, rN 11,0 yordamida amalga oshiriladi. VTM-TSH va fosfolipaza A2 konyugatlari ikki olinadi. Birinchi usulda 0,05 M borat buferi rN 9,0 dagi 0,2 ml ferment eritmasiga (2 mg/ml) 0,1 ml VTM suspenziyasi (3mg/ml) qoʻshiladi. Keyin aralashmaga chayqatib tutgan holda tomchilatib 0,1 ml 2,5%-li glutar dialdegidi eritmasi va 0,6 ml 0,1 M borat buferi, rN 9,0 qoʻshiladi. Aralashma 4⁰S da 15-20 soat mobaynida inkubatsiya qilinadi va 2 sutka davomida dializ qilinadi. Kon'yugat eritmasi sentrifugirlangandan ferment soʻng ferment aktivligi aniqlanadi.

Ikkinchi usul shu usulda olingan kon'yugatni poliamid-kefalin va poliamid-VTM sorbentlar biospetsifik xromatografiya usulida tozalashdan iborat.

Immunoferment diagnostikum quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- 1) TSH-VTM ning tozalangan preparati (kalibrovka egri chizigʻini tuzish uchun) ;
- 2) virus va fosfolipaza A2 konyugati;
- 3) 3,1 mM tuxum letsitini, 10 mM CaCl₂, 8 mM triton X-100, 0,5 m tris-NS1, rN 8,5 tutgan substrat aralashmasi.

Analiz usulining mohiyati quyidagalardan iborat. Maʼlum miqdordagi VTM (turli konsentratsiyalar) ning 0,05 M borat buferi, rN 8,0 dagi eritmasiga 0,1 ml antitela (0,35 mkg oqsil) eritmasi qoʻshiladi, eritma hajmi 0,8 ml gacha bufer bilan etkaziladi va 15 minut ushlab turiladi. Keyin 0,1 VTM ning fosfolipaza A2 kon'yugati (0,5mkg oqsil boʻyicha) va yana 15 minutga qoldirildi. Aralashmaning bir qismi (0,1 mkg oqsil boʻyicha) 8,5 ml hajmli titrator yacheykasiga qoʻshiladi. Fosfalipaza aktivligini yogʻ kislotalari miqdori bilan oʻlchanadi. Kalibrovka egri chizigʻi orqali virus miqdori aniqlanadi.¹⁹

Tayanch soʻzlar va iboralar:

¹⁹ Altman J. D., Moss P. A. H., Goulder P. J. R., Barouch D. H., McHeyzer-Williams M. G., Bell J. I., McMichael A. J., Davis M. M. Phenotypic analysis of antigen-specific T lymphocytes. Science. 1996;274:94–96. [PubMed]

Agglyutinatsiya – suyuqlikdagi zarrachalar (bakteriyalar, eritrotsitlar va boshqa xujayra elementlari)ning bir biriga yopishib, gʻujlanib qolishi.

Nazorat uchun savollar:

1. Immunobiotexnologiya fani nima?
2. Immunologiyaning dolzarb muammolari qaysi soxada ishlatiladi?

ESSE usuli

Bu usul ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish har tomonlama koʻrib chiqilmaguncha xotirada saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalashga imkon beradi. Biotexnologiya yoʻnalishlari haqida **esse** usulida taxlil qilish.

Эссе усули

Эссе- французча тажриба, дастлабки лойиҳа, шахснинг бирор мавзуга оид ёзма равишда ифодаланган дастлабки мустақил эркин фикри. Бунда тингловчи ўзининг мавзу бўйича тассуротлари, ғояси ва қарашларини эркин тарзда баён қилади. Эссе ёзишда ҳаёлга келган дастлабки фикрларни зудлик билан қоғозга тушириш, иложи борича ручкани қоғоздан узмасдан – тўхтамасдан ёзиш, сўнгра матнни қайта таҳлил қилиб, такомиллаштириш тавсия этилади. Мана шундагина ёзилган эссенинг ҳаққоний бўлиши эътироф этилган. Эссени муайян мавзу, таянч тушунча ёки эркин мавзуга бағишлаб ёзиш мақсадга мувофиқ. Баъзан, айниқса тарбиявий соатларда таълим олувчиларга ўзларига ёккан мавзу бўйича эссе ёздириш ҳам яхши натижа беради.

V.KEYSLAR BANKI

Keys-stadi inglizcha *case* - anik vaziyat, *study* - talim sozlarining birikishidan hosil qilingan bolib, aniq vaziyatlarni organish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan talim metodidir.

Hozirgi kunda Bosh ilmiy-metodik markaz portalida taqdim etilgan «Innovatsion talim texnologiyalari» moduliga oid materiallar va taqdimotlarda Keys-stadi usulini amalga oshirish bosqichlari quyidagicha belgilangan:

1. Keys bilan tanishuv (individual)
2. Asosiy muammoni (oquv muammosini) ajratib olish va organish (individual va kichik guruhlarda)
3. Goyalar yigish va muammoning echimini izlash (kichik guruxlarda)
4. Keys echimi uchun taklif etilgan goyalarni taqdimoti, tahlil va baholash (oqituvchi va kichik guruhlar)

Keys echimi va tavsiyalar (oqituvchi, kic

1-Keys: Texnologik jarayonlarning bajarilishi talabga javob bermasligi bilan bogʻliq muammolar.

Keysni bajarish boʻyicha topshiriqlar:

- Limfoid organdan immunostimulyator (timektomin) kam miqdorda ajratib olinmoqda. Buning sabablari aniqlanib, bartaraf etilishi zarur.

Keysning asosiy maqsadi:

- 1.Immunostimulyator olish texnologiyasining bosqichlarini o'rganish;
- 2.Texnologik jarayon davomida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishni o'rganish;

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- Timusdan olingan faol modda asosida immunostimulyator vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- Biofaol moddalar aralashmasidan preparatni ajratib olish bilan bog'liq muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarga ega bo'ladi;
- Muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topishni uddalay oladi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i zarur:

Talaba bilishi kerak:

- Timektomin stimulyatorining o'ziga xos xususiyatlarini;
- Ishlab chiqarish texnologiyasining bosqichlarini.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- Mavzuni mustaqil o'rganadi;
- Muammoni mohiyatini aniqlashtiradi, g'oyalarni ilgari suradi;
- Ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;
- O'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- O'quv ma'lumotlari bilan mustaqil ishlaydi, ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Talaba ega bo'lmog'i kerak:

- Kommunikativ ko'nikmalarga;
- Taqdimot ko'nikmalariga;
- Hamkorlikda ishlash ko'nikmalariga;
- Muammoli holatlarni tahlil qilish ko'nikmalariga.

Amaliy vaziyatni bosqichma bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. «Pepsin olish texnologiyasi» mavzusining maqsadi va vazifalari haqida tushuncha hosil qilish uchun mavzuga oid bor bo'lgan axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni ostiga chizib qo'ying.
3.Muammoli vaziyatni tahlil	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Immunostimulyator olish texnologiyasida vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish.

qilish	Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. 1.Timektomin moddani ajratib olishda asosiy xom-ashyoga qanday ishlov beriladi? 2.Ajratib olingan biofaol moddalar aralashmasi tarkibidagi muayyan komponent qanday xossalarga ega? 3.Moddaning xususiyatini bilgan holda unga qanday erituvchi mos keladi? 4.Timektomin faolligini aniqlash qanday amalga oshiriladi? 5.CHo'ktirish jarayoni necha marta va qanday amalga oshiriladi? 6.Quritish jarayonida qanday muammolar yuzaga keladi va ular qanday bartaraf etiladi?
4.Muammoli vaziyatni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash.	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topish maqsadida muammoli vaziyat jadvalini to'ldiring. Muammoni echish uchun hamma vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating,muammoni echimini aniq variantlardan tanlab oling. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma ravishda ilova eting.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Biofaol moddalar aralashmasidan muayyan komponentni ajratib olish uchun tegishli erituvchi va adsorbentni tanlash.	Organik erituvchilarning ortiqcha sarfi. Ajratib olinishi kerak bo'lgan moddaning to'liq ajratib olinmasligi. Xom ashyodan unumli foydalana olmaslik.	Ajratib olinishi kerak bo'lgan biofaol moddaning agregat va fizik-kimyoviy xossalariidan kelib chiqqan holda tegishli erituvchi va adsorbent tanlanadi.

2-Keys. Tuzlar yordamida cho'ktirish orqali immunostimulyatorlik xususiyatiga ega moddani ajratish

Keysning asosiy maqsadi:

1. FAOL MODDANI CHO‘KTIRISHNI O‘RGANISH.

2. Tuzlar yordamida cho‘ktirish orqali immunostimulyatorlik xususiyatiga ega moddani ajratish prinsiplarini o‘rganish.



O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

Oqsil tabiatli faol moddalar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi.

- Faol moddani ajratish haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
- Tahlilni o‘tqazish uslubiyotiga asoslangan jarayonni to‘liq o‘zlashtirib oladi .
- Oqsil tabiatli moddalarni tozalash** haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi.
- Muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topishni uddalay oladi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmog‘i zarur:

Talaba bilishi kerak:

Ajratish va tozalash usullarini bosqichlarini

Talaba amalga oshirishi kerak:

- Mavzuni mustaqil o‘rganadi;
- Muammoni mohiyatini aniqlashtiradi, g‘oyalarni ilgari suradi;
- Ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi;
- O‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- O‘quv ma’lumotlari bilan mustaqil ishlaydi, ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Amaliy vaziyatni bosqichma bosqich tahlil qilish va hal etish bo‘yicha talabalarga uslubiy ko‘rsatmalar

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1.Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. “Faol moddani ajratish va tozalash ” mavzusining maqsadi va vazifalari haqida tushuncha hosil qilish uchun mavzuga oid bor bo‘lgan axborotni diqqat bilan o‘qib chiqish lozim
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o‘tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o‘qib mazmuniga kirib boramiz.

3.Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: <i>Faol moddani tozalash davomida mayyan moddaning xususiyatidan kelib chiqqan holda eng samarali usulini tanlay bilish.</i> Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. 1.Ajratib olingan biofaol modda toza holda yoki kompleks holatda olinganmi? 2. Ajratib olingan biofaol modda qanday fizik–kimyoviy xossalarga ega? 3.Ajratib olingan biofaol modda qanday agregat holatda? 4.Tahlil qanday uslubda amalga oshirilmoqda? 5.Qanday usulni qo‘llaganda muayyan biofaol moddaning ajratib olinish samarasi yuqori bo‘ladi? 6.Biror tozalash usulini tanlashda qanday omillarga e‘tibor bermoq lozim?
4.Muammoli vaziyatni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash.	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topish maqsadida muammoli vaziyat jadvalini to‘ldiring. Muammoni echish uchun hamma vaziyatlarni ko‘rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating.Muammoni echimini aniq variantlardan tanlab oling. Jadvalni to‘ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma ravishda ilova eting.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Biofaol moddalar aralashmasidan muayyan komponentni ajratib olish uchun tegishli xromatografiya turini tanlash.	Ajratib olinishi kerak bo‘lgan moddaning to‘liq ajratib olinmasligi. Xom ashyodan unumli foydalana olmaslik. Organik erituvchilarning ortiqcha sarfi. Tozalash jarayonining davomiyligini ortib ketishi.	Ajratib olinishi kerak bo‘lgan biofaol moddaning xossalariidan kelib chiqqan holda tegishli samarali usuli tanlanadi.

3-Keys Antigenlar va uning titrini aniqlash. Titr aniqlana olinmadi. Buning sababini aniqlang.



Keysning asosiy maqsadi:

1. YOt modda ya'ni antigen miqdorini o'rganish.
2. Antigenni to'g'ri tanlash.
3. Antigen bilan antitana ta'sirini o'rganish.

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

1. Antigen haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.
2. Texnologik jarayonning har bir bosqichini izohlay biladi.
3. Antigen titriga ta'sir etuvchi omillarni o'rganadi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i zarur:

Talaba bilishi kerak:

Antigenlarning tuzilishi va hossalari.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- Mavzuni mustaqil o'rganadi;
- Muammoni mohiyatini aniqlashtiradi, g'oyalarni ilgari suradi;
- Ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;
- O'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- O'quv ma'lumotlari bilan mustaqil ishlaydi, ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Amaliy vaziyatni bosqichma bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1.Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. " Antigenlar va uning titrini aniqlash. " mavzusining maqsadi va vazifalari haqida tushuncha hosil qilish uchun mavzuga oid bor bo'lgan axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga

	o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz.
3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Antigen titriga <i>salbiy ta'sir etuvchi omillar nimadan iborat?</i> Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling. 1. Aniqlanayotgan antigen qanday tuzilishga ega? 2. Antigen faolligi qanday usulda aniqlanadi? 3. Antigen qanday xossalarga ega? 4. Ushbu modda tahlili qanday uslubda amalga oshirilmoqda?
4. Muammoli vaziyatni echish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash.	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topish maqsadida muammoli vaziyat jadvalini to'ldiring. Muammoni echish uchun hamma vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoni echimini aniq variantlardan tanlab oling. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma ravishda ilova eting.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to'ldiring

Vaziyatdagi muammolar turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Antigenli xususiyatiga ega moddani titrini aniqlash uchun tegishli spetsifik usulni tanlash.	Antigenni titrini to'liq o'rganish mumkin emasligi. Antigen titrini aniqlashda spetsifik usulni tanlay olmaslik. Antigenni ortiqcha sarfi. Unga spetsifik bo'lgan antitanani tanlay olmaslik.	Antigen titrini aniqlashda unga spetsifik antitana to'g'ri tanlanadi.

4- Keys: Mutaxassislik atamaları bo'yicha topshiriq.

Tinglovchilar keys bilan tanishadilar va pastda ko'rsatilgan jadval asosida uning echimini topadilar.

“Biotexnologiya” kafedrasida “Immunobiologik preparatlar texnologiyasi” fanidan prof. SH.S.Tashmuxamedova ma'ruza o'tkazdilar. Ma'ruzada mavzuga oid “antigen”, “antitana”, “ferment” kabi mutaxassislik atamalariga alohida e'tibor qaratildi. Darsga kafedra assistentlari o'z pedagogik mahoratini oshirish maqsadida tashrif buyurishdi.

Ma'ruzachi “antitana” va “antigen” tushunchalari mohiyatini aniqlashtirib berdilar. U o'z nutqida “Antitanalar glikoproteidlar hisoblanadi. O'z navbatida fermentlar ham oqsil tabiatga ega” deb ta'kidladilar. SHundan so'ng talabalardan biri SH.S.Tashmuxamedovaga shunday savol bilan murojaat etdi: “Domla, kechirasiz, sizningcha, antigen lar qanday tabiatli moddalar?”. SH.S.Tashmuxamedova qisqa qilib “Antigen bu yot modda bo'lib, ko'p hollarda oqsil tabiatli bo'lishi mumkin va o'ziga xos spetsifiklikka ega.” degan

javobni berdi. Talaba javobni tushunmasdan hayron bo'lib, indamay qo'ydi. SH.S.Tashmuxeamedova o'z ma'ruzasini yakunlagach, talaba unga quyidagi savol bilan murojaat etdi: "Ustoz, meni bir savol ko'p vaqtdan beri qiziqtiradi: "Oqsil tabiatga ega bo'lmagan modda antigen bo'lishi mumkinmi? SH.S.Tashmuxeamedova talabaga quyidagicha javob berdi: "Siz manimcha, savolni man yuqorida o'qigan ma'ruzamni tinglamay berayapsiz?". Talaba ma'ruzani tinglamaganligini va ushbu terminni tushunishga o'zi mustaqil bosh qotirishga erinchoqliq qilganini tan oldi.

Siz nima deb o'ylaysiz, ma'ruzachi ushbu vaziyatda to'g'ri yo'l tutdimi? Uning harakati pedagogika to'g'ri keladimi? YOki ushbu yo'l bilan ma'ruzaga loqaydlik bilan munosabat bildirgan talabaga saboq berdimi? Siz mazkur tushunchalarni qanday izohlagan bo'lar edingiz?

Keys echimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

